

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
5111700-BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH  
YO'NALISHI

14.416-guruh bitiruvchisi Dehqonboyeva Irodaxonning  
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini iqtisodiy munosabatlarga  
tayyorlash  
mavzusidagi

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dotsent A.Asimov

Farg'ona – 2018

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2018-yil 30 – apreldagi 8-yig`ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri:

M.Abdupattoyev.

Taqrizchilar:

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi.</b>	
1.1-§ Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishni O'zbekistondagi o'ziga xos modeli.....	6
1.2-§ Harakatlar strategiyasi – barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish omili.....	13
<b>II BOB. Matematika darslarida o`quvchilarning iqtisodiy munosabatlar haqidagi tushunchalarining shakllantirishni yo'llari.....</b> 19	
2.1.-§ Tomorqadagi oila daromadi va fermer xo`jaliklariga doir masalalarni yechish orqali o`quvchilarga iqtisodiy munosabatlar haqida ma'lumotlar berish.....	19
2.2-§ Tejamkorlik iqtisodiyotning asosiy mezoni .....	42
2.3. Tajriba-sinov ishlari.....	51
Xulosa va tavsiyalar.....	66
Foydalilanigan adabiyotlar.....	67

## KIRISH

### ***Mavzuni dolzarbliji.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlis Murojaatnoma havola etadi.<sup>1</sup>

Mazkur Murojaatnomada O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotininng yangi boqichi bo'lgan 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va mamlakatimizni 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda eng ustivor yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida – biz mamlakatga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqat asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlar idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga hizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanganligini, bu tizimni asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtuval qabulxonasi fuqoralarning murojaatlari bilan ishslashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o'zini oqlaganini hamd 2017 yilda iqtisodiyot sohasida zamon talablariga javob beradigan yangicha ma'no-mazmundagi va samarali islohatlarni amalga oshirish yo'lida qadamlarni qo'yganligini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaat-nomasida mamlakatimizni 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustivor yo'nalishlari etib quydagilarni belgilab berdilar:

Birinchi, 2018 yil – "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlandi. Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalish bo'lib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tgan holda yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlatni, xalqni kelajagini barpo etishni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlash, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtrokinini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Ma'lumki boshlang'ich ta'lif uzluksiz ta'lif tizimining muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi. Hozirgi globallashuv davrda fanlarning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda, 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 2017 yil 23-dekabr soni

texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb atalishi munosabati bilan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida dastlabki iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish dolzarb muommolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa ularga "Tovar, pul, narx, baho va hakzo" tushunchalar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar berish yaxshi samara beradi. Bunda iqtisodiy xarakterdagi masalalardan foydalaniadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari iqtisodiy munosabat haqida dastlabki ma'lumotlarni olishi, ularni kelgusida fermer yoki tadbirkor bo'lish hislatlarini shakllantiradi.

### **Mavzuni o`rganganlik darajasi.**

Boshlang`ich sinflarda masala yechish usulari M. Jumayev, G. Tojiyev, N.Bikbayeva o`quv qo'llanmalarida va maqolalarda tadqiq etilgan.

Masala shartini o`zgartirib masaladan yangi masala hosil qilish usullarining ba`zi bir o`ziga xos xususiyatlari D. Yusupxo'jayeva, M. Adhamov, M. Jalilov, A.Asimov, Sh. Jo`rayev maqolalarida o`rganib chiqilgan.

### **Tadqiqotning maqsadi :**

Boshlang`ich sinfda iqtisodiy xarakterdagi masalalarni yechish orqali o'quvchilarni iqtisodiy munosabatlar tushunchalarni shakllantirish usullarni tadqiq etish va ularga yangicha yondashish.

### **Tadqiqotning predmeti :**

Boshlang`ich sinfda matematika darslarida iqtisodiy xarakterdagi masalalarni yechish jarayoni.

### **Tadqiqotning obyekti :**

Yozovon tumanidagi 8 – muktabning boshlang`ich sinf o'quvchilarning masalalar yechish faoliyati.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

- 1) boshlang`ich sinfda iqtisodiy xarakterdagi masalalarni yechish usullari orqali iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish.
- 2) iqtisodiy xarakterdagi masalalar yechganda ularni turli guruhlarga ajratish usullarining o`ziga xos xususiyatlarni o`rganish.
- 3) iqtisodiy xarakterdagi masalani yechishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ahamiyatini ko`rsatish.

## **Tadqiqotning yangiligi:**

1 ) boshlang`ich sinf matematika darslarida iqtisodiy xarakterdagi masalalarini yechish orqali o`quvchilarda iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish dolzarb metodik muammo sifatida ilmiy - nazariy jihatdan asoslandi.

2) boshlang`ich sinf matematika darslarida iqtisodiy xarakterdagi masalalarini yechish usullari tadqiqot mavzusi sifatida ajratilib, uning vazifalari o`quvchilarni matematikani o`zlashtirishni sifat ko`rsatkichidagi yaxshilinishidagi va ularda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishdagi o`rni aniqlandi.

3) o`quvchilarni o`quv - biluv faoliyatidagi materiallar turlari aniqlandi.

## **Tadqiqotning metodologik asosi:**

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risida”gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Boshlang`ich ta`lim konsepsiysi, O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlari, Prezident Sh.Mirziyoyevning so’zlagan nutqlari, ta`lim jarayonini takomillashtirishga yo’naltirilgan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o’rta maxsus ta`lim hamda xalq ta`limi vazirligining buyruqlari.

## **Tadqiqotning metodi:**

Kuzatish, ekspriment o`tkazishi.

Mazkur malakaviy ish ikki bobdan iborat bo’lib, birinchi bobda O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o’tishning o’ziga xos xususiyatlari hamda Harakatlar strategiyasining mohiyati yoritilgan. Ikkinci bobda esa iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, o`quvchilarning iqtisodiy dunyoqarashini o’stiruvchi masalalar darslik bo’yicha tahlil qilingan va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlari Yozyovon tumanidagi 8-maktabning boshlang`ich sinflarida o’tkazilgan. Ulardan foydalanib kerakli xulosalar chiqarilgan. Ushbu xulosalardan boshlang`ich ta`lim o’qituvchilari o’z ish faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

## **I.BOB. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi.**

### **1.1-§ Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishni O'zbekistondagi o'ziga xos modeli.**

Bozor iqtisodiyoti – tovar - pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisod turidir. Boshqacha ta'riflaydigan bo'lsak, yer yuzidagi barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lgan erkin sohibqironlik hukmron joylarda iqtisodning asosiy turi hisoblangan, mustaqil iqtisodiy faoliyat asosida kishilarning ehtiyojini qondirish uchun zarur tovar ishlab chiqarish hamda tovarni oldi – sotdisi sotuvchi bilan xaridorning erkin, ixtiyoriy munosabatlariga asoslangan iqtisoddir.

Turli tovar ishlab chiqaruvchilar bozorda ham sotuvchi, ham xaridor vazifasini o'tashadi. Bozor aloqalari kerakli tovarlar zaruriy miqdorda hamda kelishilgan narxda ayrboshlanishini bildiradi. Tovarlar bevosita emas, balki pul vositasida ayrboshshanadi. Pul muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi, uning nufuzi ortadi. Tovar – pul munosabatlari umuminsoniy hodisa, ular turli tizimlarga xos, ularni bir – biriga bog'lab turadi. Ammo bu munosabatlar yuksak darajada rivoj topgandagina bozor iqtisodiyotaga aylanadi.

Bozor iqtisodiyotining tub belgilari quyidaghilatdan ibotar:

1. Iqtisodiy – plyuralizm – ya'ni mult shakllarining va xo'jalik yuritishning turli – tuman bo'linishidir. Bunda turli shakldagi mulklar erkin, yonma – yon, hech bir chegaralanmagan holda rivojlanadi. Xo'jalik yuritishda har xil usullar qo'llaniladi. Yakka tartibda, jamoa – uyushmaga birikkan holda, sherikchilik – paychilik, yoki aksionerlik asosida, o'z mablag'i yoki qarzga olingan mablag'ga tayanib ish yuritish kabilardan keng foydalaniladi.
2. Bozor iqtisodiyoti – erkin iqtisodiyotdir. Bunda mult egalarining to'la mustaqilligi tushuniladi. Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'z tovarini yoki

pulini o'zi bilganicha ishlatadi, bunga u to'la haqli bo'ladi. Bozor iqtisodiyotini tashkil etuvchilar – tadbirkorlar tarqoq holda foyda – zararni o'z zimmalariga olgan holda ish ko'radilar. Ammo ularning faoliyatlari qanchalik tarqoq bo'lmasin, ularni bozor birlashtiradi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zaro munosabatlar manfaatlarni ko'zlagan holda o'rnatiladi. Ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlar erkin shakllanadi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar bir – birlarini erkin tanlaydilar. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo'lmaydi, shu sababli iste'molchi tovar va xizmatlarni sifatiga va narxiga qarab tanlab olish imkoniga ega bo'ladilar.
4. Bozor iqtisodiyotining yana bir belgisi – narxlarning liberallashuvi, ya'ni narx navoning erkin tashkil topishidir. Tovarlar narxlarini davlat tomonidan belgilanmaydi, balki bozordagi talab, taklif asosida, xaridor bilan sotuvchining kelishuviga binoan yuzaga keladi.

Narx esa albatta pul bilan o'lchanadi, binobarin pulsiz bozor iqtisodiyoti bo'lishi mumkinmas.

Shuning uchun, pul oboroti, pul emissiyasi, pul qadr – qimmati, inflatsiya, valuta, kursi kabi hodisalar iqtisodiyotining ko'zgusi hisoblanadi.

5. Muhim belgilaridan yana biri bu – raqobatdir. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida, birinchidan manfaatlar to'qnashib raqobat yuz bersa, ikkinchidan, subyektlar o'z faoliyatini, binobarin manfaatlarini ham muvofiqlashtirishga intiladilar. Aks holda ularning ishlari rivojlanmaydi.

Subyektlar deganda biz, har xil shakldagi mulk egalarini, firma, korxona, xo'jaliklarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarni, davlat mahkama va idoralarini tushunish kerak. Iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ishonchli raqobat hosil bo'lsagina bunday oldi – sotdilar uzoq davom etadi va buning natijasida har ikki tomon ham manfaat topadi. Shuning uchun raqobat to'g'ri, halol bo'lmog'i lozim.

Raqobatga hos bo'limgan munosabatlar ham bozor iqtisodiyotida kelib chiqadi. Masalan, marketing (ishlab chiqarishni bozor bilan bog'laydi) orqali ishab chiqarish iste'mol bilan bog'lanadi. Natijada har ikki tomonning manfaati uyg'unlashadi.

Demqak, bozor iqtisodiyotida raqobatdan tashqari bozor regulyatorlari degan vositalar ham bor. Bular bozordagi o'zgarishlarni ishlab chiqarishga yetkazib, uning bozorga moslashuvini ta'minlaydilar. Bu belgi bozor iqtisodiyotining oltinchi belgisi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotining har bir subyekti, bu korxonami, davlatmi, ayrim kishimi – buning ahamiyati yo'q, o'z manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi. Ammo ko'r – ko'rona xohlagan ishini qila olmaydi. U bozor bilan hisoblashishga majbur, aks holda ishi yurishmaydi, daromad topmaydi, xonavayron bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchiga ham, iste'molchiga ham nima qilish kerakligini bozordagi narx ko'rsatadi.

7. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos ijtimoiy adolat qoidalari bor. Iqtisodiyotdagi resurslar miqdori, ularning samarasiga qarab ishlab chiqilgan tovar va xizmatlarni taqsimlash va unga mos ravishda daromadga ega bo'lish, yuqori turmush darajasiga chiqish adolat hisoblanadi. Ammo adolat prinsipi hammani tenglashtiriladi, degani emas, balki jamiyatning tabaqalanishiga olib keladi. Iqtisodiy subyektlar o'z mehnatlariga, ishbilarmonliklariga va mulkiga qarab, bir – biridan farqlanadi, ularning daromadi, turmush darjasи va jamiyatdagi mavqeyi bir xil bo'lmaydi. Tabaqalanish boylarga havas qilib, shunday bo'lishga intilishni hosil qiladi, bu esa yaxshi ishlarga undaydi.

8. Bozor iqtisodiyoti moslashuvchan iqtisodiy tizimdir. U sharoit o'zgarishiga darxol javob bera oladi. Bozorda nima yetishmasa, shuni ishlab chiqarishga va iste'molchini talabini qondirishga undaydi.

9. Uning yana bir muhim belgilaridan biri – Novatsiyaga moyillikdir. U fan – texnika yangiliklarini tezda qabul qiladi, yangi texnologiyani qo'llash orqali tovarlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlardan eng yaxshisini tanlab olgan holda ehtiyojni qondirish imkonini yaratadi.

Ammo bozor iqtisodiyotini hamma dardga davo ekan, deb qarash ham noto'g'ri bo'ladi. Uning ham o'ziga xos lekinlari bor. Bozor iqtisodiyoti millionlardan iborat ishlab chiqaruvchi va ishlab iste'molchilarning faoliyati bo'lganligi uchun unga tarqoqlik va xudbinlik ham xos. U o'z – o'zidan davlat va jamoatchilikning ishtirokisiz tabiatni muhofaza etish, ekologik muvozanatni izdan chiqarishga ham olib kelishi mumkin.

Jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan, lekin katta mablag' talab qiladigan, qaytimi sekin boradigan inshoatlar qurilishini, ilm, ma'rifat, kelajak uchun muhim ilmiy izlanishlar uchun ketadigan xarajatlarni ham yoqtirmaydi. Bulardan tashqari bozor iqtisodiyoti ham sakrab – sakrab siklli ravishda rivojlanadi, shu sababli yuksalishlar bilan birga inqirozlar ham paydo bo'lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan, umumjahon voqelikdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilarning xohish – irodasi emas, balki obyektiv zaruratdir. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqat bozor munosabatlari zaminidagi ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, ko'plab va sifatli tovarlar yaratish, xalqni farovon turmush sari yo'llash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolatni o'rnatish mumkin.

Ma'lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar deganda yirik 7 ta mamlakatni tushunamiz, bular, AQSH, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadir. Bundan tashqari rivojlanib kelayotgan Janubiy Koreya, Singapur, Tailand, Tayvan kabi Osiyo mamlakatlarini ham aytadigan bo'lsak, ularning tajribalari yuqorida fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan: Janubiy Koreyada bozor munosabatlari jadal rivojlanganligi oqibatida 1965 – 1987 yillarda aholi jon boshiga milliy daromad o'rtacha 6,4% ga ko'paygan, natijada qoloq, kambag'al mamlakat bo'lmish Janubiy Koreya rivojlangan, boy, xalqi to'q mamlakatga aylandi.

Binobarin, davlat sotsializmi nomini olgan totalitar tuzumda qolib ketgan asta – sekin iqtisodiy tushkunlikka uchradir. Masalan: Sobiq SSSR g'oyat katta potensialga ega bo'la turib 1988 – yilda ishlab chiqarish darajasi jihatidan 69 o'ringa, aholi jon boshiga milliy daromad 78 o'ringa tushib qoldi.

G'arb ekspertlari, iqtisodiy rivojlanishning samaradorligini 10 ballik sistemada baholaganlarida quyidagi iqtisodiy taraqqiyot darajasi aniqlandi:

Singapur – 10 ball, Yaponiya – 9,4 ball, Tayvan, Gonkong va AQSH – 9,1 ball, Kanada – 9 ball, Qozog'iston – 2,7 ball, Ukraina – 2,3 ball, Rossiya 2,2 ball, Mongoliya – 2,1 ball, Turkmaniston – 1,7 ball, Tojikiston – 1,1 ball.

Dunyo iqtisodiyotida tutgan o'rni, nufuzi va ishonchli bo'lishi (bunga 10 ta iqtisodiy ko'rsatkich kiradi) jihatidan olganda, bozor tizimidagi mamlakatlar oldingi o'rinnarda tursalar, totalitar tuzumda yashab kelgan mamlakatlar esa oxirgi o'rinnarda turadilar, xususan 1993 – yil natijalarini ko'rsak, Yaponiya – 1, AQSH – 2, Ukraina – 146, Rossiya – 149, Malayziya – 33, Qozog'iston – 148, Mangoliya – 151, Turkmaniston – 158, Tojikiston – 160, Kuba eng oxirgi – 169 o'rinda turadi. Aytaylik raqamlarning hammasi bozor iqtisodiyotining samaradorligidan darak beradi.

Bozor munosabatlari iqtisodning jadal borishini ta'minlovchi uchta kuchni yuzaga keltiradi:

1. Iqtisodiy faoliyat ekanligi – bu uddaburonlik uchun keng imkoniyatlar beradi.
2. Raqobatlar kurashi – bu kimo'zdi qoidalarini yuzaga keltiradi va novatsiyaga (yangilikni joriy etishga) undaydi, texnika – texnologiyani, mehnat unumdorligini oshirishga, qattiq mehnat intizomiga olib keladi.
3. Daromadlarning cheklanmasligi – bu qo'shimcha daromad topishga intilishni paydo qiladi. Boylikka havas, iqtisodiy faollikkha olib keladi.

Tarixan, bozor iqtisodiyotiga o'tishga eng so'nggi navbatda sotsialistik mamlakatlar o'tmoqda.

Xalqaro tajribada bozor iqtisodiyotiga o'tishning bir qancha modellari mavjud, ulardan ayniqsa, Amerika, Germaniya, Xitoy, Shvetsiya, Turkiya, Janubiy Koreya modellari mashhur. Bu modellarning hammasi ham o'z davrida o'z mamlakatlariga mos va xos ravishda xizmat qilgan va qilmoqda, hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Amerika modelining o'ziga xos xususiyati uning tadbirkorlikni aholi orasida keng yoyishga, ommaviyligiga erishishga intilishdadir. U jamiyat a'zolaridan

har birining ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab qo'lтиqlash, iqtisodiy faoliyatini, xususiy manfaatdorligini oshirish, boyishi uchun shart – sharoit yaratishga qaratilgandir.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ayrim ziddiyatlar, pasayish, inflatsiya singari ko'ngilsizliklar ko'plab, xayriya jamg'armalari, qolaversa, davlat yordamida hal etib boradilar. Bunda davlat qattiqqo'l, mehribon otadek barcha iqtisodiy qonunlarni to'la va to'g'ri bajarilishini kuzatib, nazorat ostida olib boradilar.

Yaponcha model ikkinchi jahon urushida vayronaga aylangan mamlakatda, o'z aholisi hisobiga, hokimiyatni har tomonlama va so'zsiz qo'llab – quvvatlashi, yapon vatanparvarlik tuyg'usi asosida yaratildi. Bu model eng avvalo ishlab chiqarishni chetga maxsulot chiqarishga moslashtirish, valyuta ishslash, shu hisobiga eng yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, mehnat unumdarligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash, aholini tabaqlashtirishni tezlashtirish hisobiga vujudga kelgan. Biroq maqsadga erishilgach, aholining ehtiyojmand qismiga davlat va firmalar yordami kuchaytirildi, umumiylar farovonlikka erishildi.

Shvadcha model amerikacha va yaponcha modellardan farqli o'laroq iqtisodiyotni ko'pzoq ijtimoiy yo'nalishda tashkil qilinganligi, ish haqi orasidagi farqning yuqori emasligi bilan ajralib turadi. Bu model milliy daromadni aholining ehtiyojmand qismiga ko'proq taqsimlash va tabaqlananish, tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan. Shuning uchun Shvetsiya aholisi farovonlik jihatidan jahonda yetakchi o'rinni egallaydi.

Yuqorida keltirilgan modellarni umumlashtirib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch turga yoki modelga bo'lishimiz mumkin:

1. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li.
2. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarining yo'li.
3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari, boshqacha aytganda, sotsialistik rivojlanish yo'lidan brogan va hozirda bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan mamlakatlar yo'li.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan O’zbekistonda davlatlashtirilgan, o’ta markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan – bozor iqtisodiyotiga o’tish zarurligi quyidagi bosqichlarni taqozo etadi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o’tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya’ni uni ta’minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish.
2. Bozor infrastrukturasini shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o’rnatishga ko’mak beruvchi, ya’ni, bozorda xizmat ko’rsatuvchi soxalarni, tashkilot, korxona va muassalarni yaratish.
3. Mulkchilik va xo’jalik yurtish usullarini privatizatsiyalash.
4. Marx – navoning liberallashtirish, narxlarning erkin qo’yib yuborish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish.

Bozor iqtisodiyotiga o’tishning umumiyligi, masalan, xususiy mulkchilik, ioqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg’unlashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xilligi bo’lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o’z yo’li mavjuddir, bunga uning milliy kelib chiqishi, joylshgan yeri va boshqa omillar sabab bo’ladi.

I.A.Karimovning “O’zbekiston – bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li” – kitobida Markaziy Osiyodagi yirik mamlakat hisoblanmish davlatimizning yangi iqtisodiy munosbatlarga o’tish konsepsiysi bayon etilgan. Xususan, Prezident jahon tarixida mislsiz andoza g’oyasini olg’a surdi:

Ijtimoiy jihatdan yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatini tavsifi.

Qat’iy markazlashtirilgan, ma’muriy – buyruqbozlik tizimidan xo’jalik yurutishning bozor munosabatlariga o’tishning eng muhim prinsiplari.

- Iqtisodiy islohotlarning amalga oshirishning aniq yo’nalishlari.

Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o’tishning I.A.Karimov tomonidan yaratilgan beshta asosiy tamoyillari ham mavjud.

Aniq vaziyatga, o’zbek xalqi ruhiyati, turmush tarzi va an’analariga asoslanib o’z islohotlarimizning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan: Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, ham tashqi munosabatlarning mafkuradan holi bo’lishi.

Ikkinchidan: O'tish davrida davlat bosh islohotchi va respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning bosh tashabbuskori bo'lmos'i lozim.

Uchinchidan: Bu qonunchilikni, huquqni ustuvorligini ta'minlashdir.

To'rtinchidan: Fuqarolarning, ayniqsa, kam daromadli oilalarning ijtimoiy himoyalab borish siyosatini olib borish.

Beshinchidan: Bizning sharoitimizda bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o'tib borish kerak.

Milliy xususiyatlar va an'analarni hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tishning aniq rejali belgilab olingan. Respublikada ijtimoiy – siyosiy barqarorlik va fuqarolar totuvligi ta'minlangan. Xo'jalik aloqalari buzilishi, iqtisodiyotga tashqaridan bo'layotgan salbiy ta'sirlarga qaramay iqtisodiyot barqarorlashib bormoqda. Aholining kam ta'minlangan, ijtimoiy muhtoj qatlamlarning huquqlari kafolatlangan va himoyalangan, yangi bozor munosabatlarining kurtaklari sobitqadamlik bilan hyotga kirib bormoqda.

## **1.2-§ Harakatlar strategiyasi – barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish omili.**

Prezidentimizning shu yil 7 fevraldag'i Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 – 2018 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyat qurilishi tizimining takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda sud – huquq tizimini yaanada isloh qilish, iqtisodiyt va ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ayni chog'da Harakatlar strategiyasi g'oya va maqsadi, mohiyati hamda ahamiyati davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, umuman, barcha yurtdoshimiz tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

2017 – 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi:

**I. Davlat va jamiyat qurilishi tizizmini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari.**

- 1.1 Demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning ro’lini yanada kuchaytirish.
- 1.2 Davlat boshqaruv tizmini isloh qilish.
- 1.3 Jamoatchilik boshqaruv tizmini takomillashtirish.

**II. Qonu ustuvorligini ta’minalash va sud – huquq tizmini yanada isloh qilishning ustuvor yo’nalishlari.**

- 2.1 Sud hokimyatiing chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizmini demokratlashtirish va takomillashtirish.
- 2.2 Fuqorolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalash.
- 2.3 Ma’muriy, jinoyat, fuqorolik va xo’jalik qonunchiligini takomillashtirish.
- 2.4 Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish.
- 2.5 Sud – huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash.
- 2.6 Yuridik yordam va hizmat ko’rsatish tizmini takomillashtirish.

**III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallshtirishning ustuvor.**

- 3.1 Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o’rtal muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o’zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o’sish sur’atlarini ta’minalash;

harajatlarning ijtimoiy yo’naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minalash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

ilg'or halqaro tajribada qo'llaniladigan instrumetlardan foydalangan holda pul – kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etih, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

bank tizmini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallshuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash, istiqbolli invetsiya loyhalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy hizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalg qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholini erkin resuslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalg qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish;

3.2 Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligini va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyhalarini amalga oshirishga qaratilgan faol invetsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy homashyo resuslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitini shakllantirish hamda mahsulot va hizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importning o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resusrslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

hizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda hizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamонавиј юқори texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

### 3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarini chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzi, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishslash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart – sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, yarim qayta ishslash, yarim tayyor va tayyor oziq – ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamонавиј юқори texnologik asbob –b uskunalar bilan jihozlangan

yangi qayta ishslash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish bo'yicha invetsiya loyhalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor hizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtrokinini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohatlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kaflatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy taadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarini bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yartish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqini muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib – taomillarini soddallashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'yecktlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtrokinini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'yecklar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart – sharoitlar yaratish;

invetsiya muhitini takomillashtirish, mamalakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga horijiy, eng avvalo, to'g'ridan – to'g'ri horijiy investitsiyalarini faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvni zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlikning ro'lini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'yecklarini muhandislik tarmoqlariga ulanish bo'yicha tartib – taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddallashtirish;

mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtrokinini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlshtirish, davlat xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylaridagi o'zini o'zi bosshqarish organlarning ro'lini oshirish;

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral – xomashyo, sanoat, qishloq xo’jaligi, turistik va mehnat salohiyatidankompleks va samarali foydalanishni ta’minlash;

hududlar iqtisodiyotinini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko’lамини kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo’lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo’li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo’jalik birlashmalarining mablag’larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalg qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va hizmatlar ko’rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvetsiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob’yektlarining joylashtirishga qulay shart – sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida xududlarning ishlab chiqarish, muhandis – komunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

#### **IV. Ijtimoiy sohalarni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari.**

4.1 Aholi bandligi va real daramodlarning izchil oshirish.

4.2. Axholini ijtimoiy himoya qilish va sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin – qizlarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish.

4.3. Arzon uy –joylar barpo etish bo’yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlarini yaxshilashini ta’minlovchi yo’l – transport, muhandislik – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish.

4.4. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

## **V. Havfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.**

5.1. Havfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

## **II BOB. Matematika darslarida o'quvchilarning iqtisodiy munosabatlar haqidagi tushunchalarining shakllantirishni yo'llari.**

**2.1.-§ Tomorqadagi oila daromadi va fermer xo`jaliklariga doir masalalarni yechish orqali o`quvchilarga iqtisodiy munosabatlar haqida ma'lumotlar berish.**

Mamlakatimizda qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilarining asosiy qismi-fermer va dehqon xo`jaliklari hamda tomorqa yer egalari faoliyatini chuqur tahlil qilish asosida ushbu sohada o'z yechimini kutib turgan masalalrni bugungi kun nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish va hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Fermer,dehqonxo`jaliklarivatomorqayeregalarininghuquqlarivaqonuniymanfaatlarini himoyaqilish,qishloq xo`jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 9 oktyabrdagi PF-5199-sон farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonda fermer,dehqon xo`jaliklari vatomorqa yer egalarinig huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning yer uchastkalaridan foyalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Mazkur farmon ijrosini to'liq va sifatli tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer,dehqon,xo`jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar tog'risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorda O'zekiston fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2017 yili 22 sentyabr kuni o'tkazilgan ta'sis konferentsiyasida belgilangan asosiy vazifalar va faoliyat yo'naliishlari mustahkamlab qo'yildi.

Tashkil etilgan fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlarining samarli faoliyat olib borishini ta'minlash,yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida halq deputatalari tuman Kengashlarida,fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini muhokama qilishda,yer uchastkalarini ajratish bilan bog'liq masalalrda ishtirok etish bilan bog'liq bir qator huquqlar berildi.

Ta'kidlash lozimki,fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini,shu jumladan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari,mahalliy davlat hokimyati organlari,tayyorlov,ta'minot va hizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan munosabatlarda,nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishlar o'tkazish jarayonida hamda sudlarda ishlarni ko'rib chiqishda himoya qilish tashkil etilgan kengashlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.Ushbu vazifaning sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga bir qator vakolatlar ham berildi.

Hususan,qarorda:

Fermer ,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalaining huquqlari va qonuniy manfaatlariga taaluqli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari majburiy ravishda O'zbekiston fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan kelishilishi shartligi;

O'zbekiston fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi lavozimi bo'yicha "Agrobank" aktsiyorlik tijorat banki kengashining tarkibiga kiritilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi,viloyatlar va tumanlar fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari raislari tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi,viloyat va tuman hokimlarining fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanishi hamda maqimi bo'yicha ularning o'rinnbosarlariga tenglashtirilishi belgilab qo'yildi.

Qishloq ho'jaligi ishlab chiqaruvchilarini tashkiliy va amaliy jihatdan qo'llab-quvatlash,ularga o'z ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'maklashish maqsadida tuman fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzurida fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzurida

fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga kompleks xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etildi.

Qarori bilan fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish,ularning ekin maydonlaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlandi.Chora-tadbirlar dasturida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini har tamonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish,ularning moliyaviy barqarorligini,yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha 34 ta muhim huquqiy,tashkiliy va boshqa tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Qarorda qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish,ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish,fermer,dehqonlarning hamda tomorqa yer egalarining shahsiy ma'suliyatini kuchaytirish bo'yicha yangicha tartib joriy etildi.Unga ko'ra:

Barcha fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlarida ularning takliflarini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha prognoz hajmlar belgilanadi;

Har yili 1 fevralgacha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari bilan birgalikda uyma uy yurib,hududdagi dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlarini xatlovdan o'tkazadi,ularda yil davomida ekiladigan ekin turlari va yetishtiriladigan mahsulot hajmlarini oila ehtiyoji va sotish uchun mo'jallangan qismlarga ajratgan holda aniqlaydi,mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilishi,ekinlarning to'liq va sifatli ekilishi,agrotehnik tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini tashkil etadi.

Qarorda belgilab qo'yilganidek: yakka tartibda uy- joyqurish va uy joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismida asossiz ravishda qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan yoki ini obodonlashtirmagan yer egalariga nisbatan belgilangan yer solig'I stavkasining uch barobar oshirilgan miqdori qo'llaniladi;

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun uy-joy qurish huquqsiz berilgan yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi ekinlari ekmagan yer egalarining yer uchastkasiga bo'lган huquqi qonun hujjalarda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Davlat boshqaruvi organlari,mahalliy davlat hokimiyati organlari,fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarini aniq belgilash hamda ularning javobgarligni kuchaytirish maqsadida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi,Adliya vazirligi,Yer

resurslari,geodeziya,kartografiya va davlat kadastro davlar qo'mitasi,Davlat soliq qo'mitasi,viloyat va tuman hokimliklariga fuqarolarning o'zini –o'zi bosharish organlari bilan birgalikda bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek,O'zbekiston fermer,dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlash,unga har tamonlama yordam berish maqsadida Moliya vazirligi 2017 yilning 1 noyabridan boshlab fermer xo'jaliklari tomonidan Kengashiga a'zolik badali to'lash uchun har yili pahta hom ashyosi xarid narxini o'rnatishda 0.8 foizi miqdordagi mablag'larni nazarda tutishi belgilab qo'yildi.

Mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklar faoliyati rivojlandi va takomillashdi. Ayniqsa 2010-yillardan so`ng bu faoliyat yanada rivojlandi. Bu haqda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi nutqida o'z aksini topgan :

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 – yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 – yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'shlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasida fermer xo'jaliklari haqida quyidagi fikrlarni bildirdi:

“Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 86 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga tog'ri kelmoqda.

Kun sayin mustahkamlanib, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati O'zbekistonda o'zini to'la oqladi va bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, desam, o'ylaymanki, barchamizning umumiy fikrimizni ifoda etgan bo'laman.

Fermerlarimizning ong-u tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan – yilga tobora mustahkamlanib, ularning

o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi – odamlarimiz ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgarmoqda, bebaho boyligimiz bo'lган yer va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlarini sezilarli ravishda kengaytirdi.

Shu bilan birga, tan olish kerakki, fermerlik harakatining Fermer xo'jaliklari uyushmasi shaklidagi tashkiliy tuzilmasi qishloq xo'jaligini isloh etish va sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fermerlar oldida turgan vazifalarni hal etish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.

Fermerlik o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida Fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimmi, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga yer uchastkalarini uzoq muddatga ijara berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy – huquqiy hujjatlar loyihibarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas."

Boshlang`ich maktabda matematika ta`limi o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga o`z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llash hamda ta`limning ikkinchi bosqichida o`qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta`minlashga xizmat qiladi.

Matematika kursi asosiy kattaliklar va geometrik elementlari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Ular imkoniyati darajasiga ko`ra o`quvchilarning son, arifmetik amallar va matematik munosabatlar haqidagi tushunchalarni yuqori darajada o`zlashtirishiga yordam bera borib, arifmetik bilimlar tizimiga qo'shiladi.

Matematika kursi matematik tushunchalarning hayotiy materiallar asosida o`zlashtirishni ko`zda tutadi. Bu esa darsda o`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan tushuncha va qoidalar amaliyotiga xizmat qilishini, hayotiy ehtiyojlar natijasida vujudga kelganligini o`quvchilarga yetkazib berish imkonini beradi hamda fan va amaliyot o`rtasidagi aloqalarni to`g`ri tushunishga asos yaratadi.

Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, matematika o`quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirish, ularning o`z fikrlarini aniq, to`g`ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi.

O`quvchilarni matematik bilimlarini mukammal o`zlashtirishida yuqori texnologiyalar asosida darsni tashkillashni ahamiyati beqiyos.

Shu sababli, multimedya vositalari va o`quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash, interfaol va pedagogik texnologiyalarning joriy etish maqsadida hozirgi zamon o`quvchisi innovatsion faoliyatiga tayyor bo`lmog`i lozim.

Shu bois boshlang`ich sinfdagi amaliy xarakterga ega bo`lgan.

Insonlarni kundalik faoliyatiga doir masalalarni quyidagi bo`limlarga ajratib o`tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- a) baho, miqdor va pulga doir masalalar;
- b) oila daromadiga doir masalalar;
- c) hunarmandchilikka doir masalalar;
- d) ijara hisobiga doir masalalar;

Quyida shu mavzularga oid masalalardan namunalar keltiramiz va ularni yechishni tahlil qilib chiqamiz:

### **Baho, Miqdor va Pulga doir masalalar**

#### **Masala 1.**

Metro stansiyalardan birida 8 ta o`tkazish avtomati bor. Bir kunda ularning har biriga 8000 ta 90 so`mlik jeton tashlanadi. Ular maxsus hisoblash mashinalari yordamida 2000 donadan qilib xaltachalarga joylanadi. Har bir xaltachadagi jetonlar necha so`mni tashkil etadi? Bu stansiyadagi avtomatlarga bir kunda tashlangan jetonlar necha so`mni tashkil qiladi?

Yechish: a) Har bir xaltachadagi jetonlar necha so`mni tashkil etadi?

$$2000 \times 90 = 180\,000 \text{ so`m}$$

b) avtomatlarga bir kunda tashlangan jetonlar necha so`m?

$$8 \times 8000 = 64\,000$$

$$64\,000 \times 90 = 5\,760\,000 \text{ so`m}$$

*Masala 2.* Do`konda bir xaridorga 16 metr, ikkinchisiga undan 4 metr kam gazlama sotildi. Agar 1 metr gazlamaning bahosi 425 so`m bo`lsa, necha so`mlik gazlama sotilgan? Masala shartini o`zgartirib, uni qaytadan yeching.

Yechish: a) Ikkinci xaridorga qancha gazlama sotilgan?

$$16 - 4 = 12 \text{ metr}$$

b) Birinchi xaridorga necha so`mlik gazlama sotilgan?

$$16 \times 425 = 6800 \text{ so`m.}$$

c) Ikkinci xaridorga necha so`mlik gazlama sotilgan?

$$12 \times 425 = 5100 \text{ so`m.}$$

e) Jami qancha so`mlik gazlama sotilgan?

$$6800 + 5100 = 11900 \text{ so`m.}$$

Javob: 11 900 so`m.

*Masala 3.* Jonaqi olmaning 1 kilogrammi 100 so`m, 1 kg oq olmaning bahosi 150 so`m turadi. Mirolim jonaqi olmadan 4 kg va oq olmadan 6 kg xarid qildi. 1 kg olmaning o`rtacha narxini toping.

Yechish: a) jonaqi olmalar uchun necha so`m to`landi?

$$100 \times 4 = 400 \text{ so`m;}$$

b) oq olmalar uchun necha so`m to`landi?

$$150 \times 6 = 900 \text{ so`m.}$$

c) olmalar uchun jami necha so`m to`landi?

$$400 + 900 = 1300 \text{ so`m;}$$

d) hammasi bo`lib necha kg olma olingan?

$$4 + 6 = 10 \text{ kg;}$$

f) 1 kg olmaning o`rtacha narxi necha so`m?

$$1300 / 10 = 130 \text{ so`m.}$$

Javob: 1 kg olmaning o`rtacha narxi 130 so`m.

Masalani yechish uchun tuziladigan ifoda shunday bo`ladi:

$$(100 \times 4 + 150 \times 6) / (4 + 6)$$

Masala 4.Ushbu jadvalda fermer xo`jaligida yetishtirilgan mahsulotlar miqdori (kg), ularning bir kilogrammining bahosi (so`mlarda) va sotuvdan tushgan pul haqidagi ma`lumotlar keltirilgan.

a) o`zingiz masala tuzib yeching va bo`sh o`rinlarni to`ldiring:

Mahsulotning nomi	Miqdori	Bahosi	Jami puli
Karam	23 t 500 kg	25 so`m	?
Lavlagi	16 t 8 sr	?	336 000 so`m
Piyoz	42 t 360 kg	?	931 920 so`m
Bodring	?	75 so`m	615 000 so`m
Pomidor	?	80 so`m	848 000 so`m

Yechish: a) Bodring necha kilogramm?

$$615000 / 75 = 82 000 \text{ kg}$$

b) Pomidor necha kilogramm?

$$848000 / 80 = 1600 \text{ kg}$$

c) Lavlagi bahosi qancha?

$$16 t 8 sr = 16800 \text{ kg}$$

$$336 000 / 16800 = 20 \text{ so`m}$$

*Masala 5.*

Maktab kutubxonasidan ijaraga olingan 10 nomdagи darsliklar to`plami uchun bir o`quv yilida bitta o`quvchi 3250 so`m to`laydi. Maktabda 128 o`quvchi ijaraga darsliklar oldi. O`quvchilar bir o`quv yilida jami necha so`m to`lashlari kerak?

Yechish:

Maktabda o`quvchilar bir yilda necha so`m to`lashlari kerak?

$$128 \times 3250 = 416 000 \text{ so`m.}$$

Javob: 416 000 so`m.

*Masala 6.* Tarozining bir pallasiga bidonda yog` va ikkinchi pallasiga qadoq toshlar qo`yilgan. Tarozining pallalari muvozanatda. Agar bidonning massasi 350 gramm bo`lsa, yog`ning massasi qancha?

Yechish: a) tarozining pallalari necha kilogramm toshda turibdi?  $3\text{ kg} - 3000\text{ gramm}$

b) yog`ning massasi qancha?

$3000 - 350 = 2650$  gramm.

Javob: 2650 gramm.

*Masala 7.* Bozorga har birida 60 kgdan 10 qop bodring va har birida 21 kgdan 25 yashik pomidor keltirildi. Agar 1 kg bodring 56 so`mdan va 1 kg pomidor 42 so`mdan sotilgan bo`lsa, hammasi bo`lib necha so`mlik savdo qilingan?

Yechish: a) bodring necha kilogramm?

$60 \times 10 = 600$  kg;

b) pomidor necha kilogramm?

$21 \times 25 = 525$  kg;

c) 600 kg bodring necha so`m?

$600 \times 56 = 33600$  so`m;

d) 525 kg pomidor necha so`m?

$525 \times 42 = 22050$  so`m;


e) necha so`mlik savdo qilingan?

$33600 + 22050 = 55650$  so`m;

*Masala 8.* Eni 6 sm, bo`yi 8 sm bo`lgan to`g`ri to`rtburchak chizing. Uning yuzini va perimetrini hisoblang;

A) Perimetri 28 sm, lekin yuzi har xil bo`lgan 3 ta to`g`ri to`rtburchak chizing va o`lchamlarini yozib qo`ying.

Yechish:



$$1. S = ab = 6 \times 8 = 48$$

$$P = (a+b) \times 2 = (6+8) \times 2 = 28$$

$$2. S = 7 \times 4 = 28$$

$$3. S = 14 \times 2 = 28$$

### **Oila daromadiga doir masalalar.**

*Masala 1.* 3 kg qo`y junidan 5 metr movut to`qish mumkin. Agar 10 metr movutdan 3 ta kostum tikish mumkin bo`lsa, bir kostum uchun qancha jun kerak bo`ladi?

Yechish: a) 10 metr movutga qancha jun ketadi?

$$5+5=10 \text{ kg}$$

$$3+3=6 \text{ kg}$$

b) bitta kostum uchun qancha jun kerak?

$$6 \text{ kg}/3=2 \text{ kg}$$

*Masala 2.* To`rt aka-uka: Sarvar, Sanjar, Sardor va Sobir alohida savatlarga gilos terishdi. Jami 76 kg gilos terildi. Sardor 18 kg va Sobir 16 kg, Sarvar va Sanjar esa baravardan gilos terishdi. Agar 1 kg gilosning bahosi 120 so`m tursa, aka-ukalarning har biri oilaga necha so`mdan pul topib kelishgan?

Yechish: a) Sarvar va Sanjar qanchadan gilos terishdi?

$$18+16=34$$

$$76-34=42 \text{ kg}$$

$$42/2=21 \text{ kg}$$

b) Sardor necha so`m pul topdi?

$$18 \times 120=2160 \text{ so`m}$$

c) Sanjar necha so`m pul topdi?

$$16 \times 120 = 1920 \text{ so`m}$$

d) Sarvar bilan Sobir birgalikda necha so`m pul topishgan?

$$42 \times 120 = 5040 \text{ so`m}$$

*Masala 3.* Fermer xo`jaligi a`zolari 3 kunda 6 600 kg paxta terdi. Birinchi kuni hamma paxtaning uchdan bir qismi, ikkinchi kuni undan 124 kg kam paxta terildi. Uchinchi kuni qancha paxta terilgan?

Yechish: a) birinchi kuni qancha paxta terildi?

$$6600 / 3 = 2200 \text{ kg;}$$

b) ikkinchi kuni qancha paxta terildi?

$$2200 - 124 = 2076 \text{ kg;}$$

c) uchinchi kuni qancha paxta terilgan?

$$2200 + 2076 = 4276;$$

$$6000 - 4276 = 1724 \text{ kg;}$$

*Masala 4.* Nodira xolaning 2 ta sigiri bor. Ularning har biri bir kunda 10 litrdan sut beradi. Oilada sutning 5 litri sarflanadi, qolgani sotiladi. Agar 1 litr sut 200 so`m bo`lsa, Nodira xola oilasi 1 kunda sut sotib necha so`m daromad qiladi?

Yechish: a) Nodira xola bir kunda necha litr sut oladi?

$$2 \times 10 = 20 \text{ litr;}$$

b) Undan qanchasi sotiladi?

$$20 - 5 = 15 \text{ litr;}$$

c) Nodira xola sut sotib qancha daromad qiladi?

$$15 \times 200 = 3000 \text{ so`m;}$$

*Masala 5.* 3 ta sigirga 1 kunda 6 bog` pichan, 3 kg yem beriladi. 5 ta shunday sigir uchun 2 kunda qancha pichan va yem zarur?

Yechish: a) bitta sigirga bir kunda qancha pichan va yem beriladi?

$$6 / 3 = 2 \text{ (bog` pichan)}$$

$$3 / 3 = 1 \text{ (kg yem)}$$

b) 5 ta sigir uchun 2 kunda qancha pichan va yem zarur?

$$2 \times 2 = 4$$

$$2 \times 1 = 2$$

$$4 \times 5 = 20 \text{ bog' pichan};$$

$$2 \times 5 = 10 \text{ kg yem};$$

*Masala 6.* Rahima opasi bilan birgalikda 18 litr meva sharbati tayyorladi. 5 ta har xil shisha idishda olcha sharbati va 4 ta shunday idishda uzum sharbati tayyorlandi. Necha litr olcha sharbati va necha litr uzum sharbati tayyorlangan?

Yechish: a) Shisha idishlar necha litrli?

$$5 + 4 = 9$$

$$18 / 9 = 2 \text{ litr};$$

b) Necha litr olcha sharbati tayyorlangan?

$$5 \times 2 = 10 \text{ litr};$$

c) Necha litr uzum sharbati tayyorlangan?

$$4 \times 2 = 8 \text{ litr};$$

*Masala 7.* Novvoyxonada bir ish kuni davomida 8 t oliy navli, va 6 t birinchi navli undan non yopiladi. 10 ish kuni davomida hammasi bo`lib qancha un sarflanadi?

Yechish: a) Bir kunda qancha un sarflanadi?

$$6 + 8 = 14$$

b) 10 kunda qancha un ishlataladi?

$$14 \times 10 = 140 \text{ t}$$

Javob: 140 t.

*Masala 8.* Uzunligi 3 metr va 4 metr bo`lgan bir xil yo`g`onlikdagi yog`ochlar bor. Ulardan 12 ta 1 metrli g`olalar arralab olinmoqchi. G`olalar qaysi yog`ochdan tayyorlanganda kam mehnat sarflanadi?

Yechish: 4 metrli g`olani dastlab to`rtga bo`ladi. So`ng har bir g`olani ko`ndalangiga ikkiga bo`ladi.

*Masala 9.* Abduqodir bilan opasi bozordan tuzlash uchun ikki xil bodring olishdi. Birinchi xil bodringning har 3 kilogrammi uchun 400 so`mdan, ikkinchi xil bodringning har 2 kilogrammi uchun 245 so`mdan pul to`lanadigan

bo`ldi. Birinchi xil bodringdan 18 kg, ikkinchi xilidan 20 kg olingan bo`lsa, xarid uchun qancha pul to`lash kerak?

Yechish: a) Birinchi xil bodring necha so`m?

$$18/3=6 \text{ kg};$$

$$6 \times 400 = 2400 \text{ so`m};$$

b) Ikkinci xil bodring necha so`m?

$$20/2=10 \text{ kg};$$

$$10 \times 245 = 2450 \text{ so`m};$$

c) jami qancha?

$$2400+2450=4850 \text{ so`m};$$

### **Hunarmandchilikka doir masalalar.**

*Masala 1.* Hotamjon va Nargizaxon oilasida qo`y, echki, xo`roz va tovuqlar boqiladi. Qo`y va echkilarga Hotamjon, xo`roz va tovuqlarga singlisi Nargizaxon qaraydi. Xo`rozlar 6 ta, echkilar undan 3 marta kam, echki va xo`rozlar birgalikda nechta bo`lsa, qo`ylar shuncha. Agar qo`ylar va tovuqlarning oyoqlari birgalikda 104 ta bo`lsa, tovuqlar nechta?

Yechish: xo`roz 6 ta, echkilar  $6/3=2$  ta;

$$\text{Qo`ylar } 6+2=8 \text{ ta};$$

Tovuqlar sonini x desak, unda mana shunday tenglama hosil bo`ladi:

$$8 \times 2 + 2x = 104$$

$$2x = 104 - 16$$

$$2x = 88$$

$$x = 44$$

hamma parrandalar:  $44+6=50$  ta

qo`y va echkilar:  $6+2=8$  ta

*Masala 2.* 1-masaladagi ma`lumotlardan foydalanib, hisoblang:

Agar bitta parrandaga bir kunda 100 gramm jo`xori, 150 gramm omixta yem va 50 gramm suli yoki arpa berilsa, hamma parrandalar uchun 1 oyga qancha ozuqa g`amlash kerak? Agar bir kunda bitta qo`y yoki echki uchun 250 gramm don va 400 gramm omixta yem berilsa, ular uchun 1 oyga qancha ozuqa g`amlash kerak?

Yechish: a) Bir kunda bitta parrandaga qancha ozuqa beriladi?

$100+150+50=300$  gramm;

b) Bir oyda hamma parrandalar uchun qancha ozuqa jamlash kerak?

$300\times50\times30=450\ 000$  gramm= $450$  kilogramm;

c) Bitta qo`y va echki uchun bir kunda qancha ozuqa kerak?

$250+400=650$  gramm;

d) 6 ta qo`y va 2 ta echki uchun bir oyga qancha ozuqa jamlash kerak?

$650\times8\times30=156\ 000$  gramm= $156$  kilogramm;

*Masala 3.* 1 kg arpa 110 so`m, 1 kg jo`xori 130 so`m va 1 kg omixta yem 60 so`m tursa, 1 yilga parrandalar uchun necha so`mlik va hayvonlar uchun necha so`mlik ozuqa g`amlash kerak bo`ladi?

Yechish: a) bir oyda parrandalar uchun necha so`mlik ozuqa kerak?

$450\times(110+130+60)=135\ 000$  so`m;

b) bir yilda parrandalar uchun necha so`mlik ozuqa jamlash kerak?

$135\ 000\times12=1\ 620\ 000$  so`m;

c) hayvonlar uchun bir oyga necha so`mlik ozuqa olish kerak?

$8\times(110+60)=1360$  so`m;

d) bir yilga hayvonlar uchun necha so`mlik ozuqa gh`amlash kerak?

$1360\times12=4080$  so`m;

*Masala 4.* Agar bitta tovuq 1 yil davomida 250 dona tuxum qilsa, Nargizaxon tovuqlaridan hammasi bo`lib nechta tuxum olishi mumkin?

Yechish: bir yilda Nargizaxon tovuqlari qancha tuxum qiladi?

$250\times50=12500$  ta;

*Masala 5.* Agar 1 dona tuxum o`rtacha 200 so`mdan sotilsa, 1 yilda necha so`mlik tuxum sotilishi mumkin? Bu pul parrandalarga ozuqa uchun 1 yilda sarflangan puldan qancha ortiq?

Yechish: a) bir yilda necha so`mlik tuxum sotiladi?

$12500\times200=2\ 500\ 000$

b) bu pul sarflangan puldan qancha ortiq?

$2\ 500\ 000-1\ 620\ 000=980\ 000$ ;

*Masala 6.* Nodirjon o`rtog`i Sobir bilan birgalikda ijaraga yer olib, manzarali daraxt ko`chati yetishtirish bilan shug`ullanadi. Har qatorga 30 tupdan 120 qator sada, har qatorga 20 tupdan 100 qator chinor va har qatorga 24 tupdan 80 qator terak ekishdi. Kelgusi bahorda ko`chatlarni aralashiga 40 so`mdan sotishdi. Agar ijara haqi uchun 50 000 so`m, yer haydash uchun traktorchiga 20 000 so`m va yerga o`g`it berish uchun 15 000 so`m sarflab, qolgan mehnatni o`zlar qilgan bo`lsa, o`z mehnatlari evaziga necha so`m foyda olishgan?

Yechish: a) necha tup sada daraxti o`tkazildi?

$30 \times 120 = 3600$  tup;

b) necha tup chinor ekilgan?

$20 \times 100 = 2000$  tup;

c) necha tup terak ekilgan?

$24 \times 80 = 1920$  tup;

d) barcha daraxtlar necha tup?

$3600 + 2000 + 1920 = 7520$  tup;

e) daraxtlarni qanchadan sotishdi?

$7520 \times 40 = 300800$  so`m;

f) ijara uchun, yer haydash uchun, traktorchiga, o`g`it berish uchun qancha sarflandi?

$50000 + 20000 + 15000 = 85000$  so`m;

g) qancha foyda qoldi?

$300800 - 85000 = 215800$  so`m;

*Masala 7.* Tikuvchilik to`garagi a`zolari ikki to`p surpdan 36 ta bir xil choyshab tikishdi. Agar birinchi to`pda 40 metr, ikkinchi to`pda 32 metr surp bo`lsa, har qaysi to`p surpdan nechtadan choyshab tikilgan? Masala shartiga qo`shimcha ma`lumotlar kiritib, tikuvchilarning mehnat haqini ham hisoblang.

Yechish: a) birinchi to`pda nechta choyshab tikilgan.

$40 / 2 = 20$  ta choyshab

b) ikkinchi to`pda nechta choyshab tikilgan?

32/2=16 ta choyshab

c) 1 m choyshab tikish uchun 5000 to`lansa 36 ta choyshab uchun qancha haq to`lanadi?

$$36 \times 5000 = 180000$$

*Masala 8.* O`quvchilar məktəb bog`iga 300 tups olma va 200 tups olxo`ri ko`chatı o`tqazishdi. Har bir qatorga baravardan ko`chat o`tqazildi. Shunda olmalar olxo`riga qaraganda 5 qator ortiq bo`ldi. O`quvchilar necha qator olma va necha qator olxo`ri ko`chatları o`tqazishgan?

Yechish: a) necha qator olma ko`chatları o`tqazishgan?

$$300 - 200 = 100$$

$$100 / 5 = 20$$

$$300 / 20 = 15$$

b) necha qator olxo`ri o`tqazishgan?

200/20=10 qator olxo`ri.

*Masala 9.* O`quvchilar "Qorasuv" parrandachilik fermasida 1458 ta tovuq parvarish qildi. Bu ular boqqan o`rqaklardan 835 ta ortiq. O`quvchilar nechta o`rdak boqqan? Hamma parrandalar nechta?

Yechish: a) ular boqqan o`rdaklar nechta?

$$1458 + 835 = 2293 \text{ ta;}$$

b) hamma parrandalar nechta?

$$2293 + 1458 = 3751 \text{ ta;}$$

*Masala 10.* Parrandachilik fermasida 645 ta tovuq, 780 ta o`rdak va 550 ta g`oz boqilmoqda. Agar bir oyda har bir tovuqqa 9 kg, o`rdakka 15 kg va g`ozga 13 kg ozuqa sarflansa, ferma hamma parrandalar uchun bir oyda qancha ozuqa g`amlashi kerak?

Yechish:  $645 \times 9 + 780 \times 15 + 550 \times 13 = 5805 + 11700 + 7150 = 24655$ ;

Javob: parrandalar uchun bir oyda 24655 kg ozuqa g`amlash kerak.

Hozirgi kunda boshlang`ich sinf o`quvchilarida dastlabki iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang`ich iqtisodiy

tushunchalarni darslarda, turli xil tadbirlarda, viktorina hamda kechalarda o`quvchilar idrokiga singdirish, ma`lum bir tushunchalarning mohiyatini anglatish mumkin.

Mazkur ma`lumotlardan sinfda, sinfdan tashqari fan to`garaklarida ijodiy foydalanish kichik yoshdagi o`quvchilarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirish mumkin.

Ma`lumki, fermer xo`jaligi o`ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi fermer xo`jaligi a`zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo`jalik yurituvchi subyektdir.

Qishloqda kichik va o`rta biznes vakili - fermer xo`jaliklarini rivojlantirish mamlakatimiz qishloq xo`jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning istiqboldagi ustuvor yo`nalishidir.

Har qanday xo`jalik yuritish shakli muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimda vujudga kelish va rivojlanish jarayonida tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va psixologik xarakterdagi bir qator omillar ta`sirida shakllanib, o`ziga yo`l ochib boradi.

Fermer xo`jalingining vujudga kelishi va shakllanishida uning tashkiliy, iqtisodiy asoslari muhim ahamiyat kasb etdi. Fermer xo`jaligi uni tuzayotgan a`zolar xohishiga ko`ra, ixtiyoriy tashkil etilib, o`z ishlab chiqarishini belgilangan qonunchilik doirasida yuqori foyda olishni ko`zlab tashkil etadi.

Fermer xo`jaligi tuman (shahar) hokimligida davlat ro`yxatidan o`tkazilgan paytdan boshlab, yuridik shaxs maqomini oladi va o`z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy va mulkiy tusda bo`lmagan huquq va majburiyatlarga ega bo`lishi mumkin.

Amaldagi qonunchilikka ko`ra Fermer xo`jaligi tashkiliy -huquqiy jihatdan:

- xo`jalik a`zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan;
- o`ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi;
- o`z nomi o`yib yozilgan hamda gerb tasviri tushirilgan muhrga hamda shtampga ega, yuridik shaxs maqomidagi;
- bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob varaqalar ochadigan;

- boshqa korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar hamda muassasalar bilan o`zaro teng huquqli munosabatlarga kirishuvchi mustaqil xo`jalik yuritish subyekti hisoblanadi;

Qishloq xo`jaligida Fermer xo`jaliklarining boshqa xo`jalik yuritish shakllari bilan teng sharoitlarda va sog`lom raqobat asosida rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy-me`yoriy baza yaratilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi, “Fuqarolik kodeksi”, “Fermer xo`jaligi to`g`risida” gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida” gi qonunlar, respublika Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Fermer xo`jaliklari faoliyatining mulkiy dahlsizligi va tadbirkorlik erkinligini ta`minlashga hamda, qo`llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Fermer xo`jaligi faoliyatining qonun bilan mustahkamlab qo`yilgan asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- ustavda nazarda tutilgan doirada va ijara shartnomasida belgilangan ixtisoslashuvga muvofiq o`ziga berilgan yer uchastkasida ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;
- ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona foydalangan holda mustaqil ravishda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishslash va sotish, shuningdek xizmatlar ko`rsatish;
- tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga pullik xizmatlar ko`rsatish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- yetishtirilgan mahsulotni sotish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan shu jumladan, davlat ehtiyojlari uchun sotish yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq xo`jalik shartnomalari tuzish;
- o`zi yetishtirgan mahsulotga egalik qilish, shu jumladan, uni o`zi xohlagan iste`molchilarga sotish va xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to`lanadigan fyuchers bitimlar tuzish;
- tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk hamda pul mablag`lari ixtiyoriylik asosida va shartnoma shartlariga muvofiq jalb qilish;
- kredit olish uchun yer uchastkasida foydalanishni ijara ga berish huquqini va yetishtirilgan mahsulotni garovga qo`yish;
- kichik va xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarni ishga yollash (doimiy va vaqtinchalik asosda) va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;
- ixtiyoriy ravishda birlashish, jumladan ulush (pay) asosida birlashish jamiyatlar, ittifoqlar, uyushmalar hamda boshqa birlashmalarga kirish;
- huquqlarini himoya qilish uchun o`z faoliyatining har qanday masalalari bo`yicha sudga murojaat qilish;
- faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish;

O`zbekiston Respublikasi “Dehqon xo`jaligi to`g`risida” gi qonunga asosan “Dehqon” xo`jaligi deb yuridik shaxs huquqiga ega bo`lgan xo`jalikni mustaqil yurituvchi, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shu jumladan, “o`zi egalik qilayotgan yer uchastkasidan foydalangan holda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi bilan shug`ullanuvchi sub`yektga aytildi”— deb belgilangan. Shu qonunga asosan dehqon xo`jaligini yuritish uchun ayrim shaxslarga meros qoldirish huquq bilan umrbod egalik qilish uchun uchastkalari ajratiladi.

Dehqon xo`jaligini yuritish istagini bildirgan shaxslar xalq deputatlari qishloq kengashiga yer ajratish to`g`risida ariza bilan murojaat etadilar. Arizada so`ralayotgan yer maydoni qayerda joylashganligi, uning sahni, Dehqon xo`jaligining tartibi ko`rsatiladi va qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishni dasturi taqdim etiladi.

2008-yil 1-oktabr holatiga ko`ra Respublikamizda 219.9 mingdan ortiq fermer xo`jaligi faoliyat yuritgan, ularda 1.6 million kishi yoki sohada band bo`lgan aholining qariyb 90% mehnat qilmoqda, qishloq xo`jaligi ekin maydonlarining qariyb 85% ana shu xo`jaliklar hissasiga to`g`ri keladi.

O`tgan yili mamlakatimiz bo`yicha tayyorlangan yalpi paxta hosilining 99%, g`allaning 82.4% fermer xo`jaliklari tomonidan yetishtirildi. Yurtimizda tayyorlanayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari umumiylajmida fermer va dehqon xo`jaliklarining ulushi 97.4 % tashkil etmoqda.

Fermer xo`jaliklarini rivojlantirish bo`yicha Farg`ona viloyatida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2008-yil 1-oktabr holatiga ko`ra viloyatda 25.6 mingdan ortiq fermer xo`jaliklari faoliyat ko`rsatgan. Joriy yilda ular tomonidan 690 ming tonnadan ziyod g`alla yetishtirildi. Bu esa 1991 yilda viloyatda tayyorlangan g`alla hosildan 14 baravar ko`pdir. Shuningdek viloyatda yetishtirilgan 323 ming tonna paxtaning 100 % fermer xo`jaliklari tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi faktlardan har bir o`qituvchi fermer xo`jaliklariga shu masalalarni yechishda foydalanishlari mumkin.

Biz quyida fermer xo`jaliklarga shu masalalardan namunalar keltiramiz.

### *Masala 1.*

Fermer shaharga ikkita mashinada qovun jo`natdi. Birinchi mashinada 180 ta, ikkinchi mashinada undan 70 ta ortiq qovun bor edi. Har bir qovun 200 so`mdan sotilgan bo`lsa, necha so`mlik savdo qilingan? Agar 250 so`mdan sotilsa, necha so`mlik savdo qilingan bo`ladi?

Yechish: a) ikkinchi mashinada nechta qovun bor?

$$180+70=250 \text{ ta};$$

b) qovunlar 200 so`mdan bo`lsa, qancha savdo qilingan?

$$250+180=430;$$

$$430 \times 200 = 8600 \text{ so`m};$$

a) qovunlar 250 so`mdan sotilsa, necha so`mlik savdo qilingan?

$$430 \times 250 = 107500 \text{ so`m};$$

### *Masala 2.*

Fermer xo`jaligida bir kunda 930 litr sut sog`iladi. Ularni bir xil bidonga solib, tumandagi bog`cha, maktab majmulariga 12 bidon, muzqaymoq firmasiga 6 bidon va qandolat firmasiga 8 bidon jo`natiladi. Har bir korxonaga qanchadan sut berilganini hisoblang.

Yechish: a) jami bidonlar soni qancha?

$12+6+8=26$  ta;

b) har bir bidonda necha litr sut bor?

$936/26=36$  litr;

c) korxonalarga qanchadan sut berilgan?

$36\times12=432$ ;

$36\times6=216$ ;

$36\times8=288$ ;

Javob: bog`chaga 432 litr, muzqaymoq firmasiga 216 litr, qandolatchilik firmasiga 288 litr sut berilgan.

*Masala 3.*

Ikkita dalaga 45 qop urug`lik kartoshka olib kelindi. Birinchi dalaga ikkinchi dalaga qaraganda 5 qop ortiq urug`lik keltirildi. Agar birinchi dalaga ikkinchisiga qaraganda 350 kg ortiq urug`lik keltirilgan bo`lsa, har bir dalaga necha kilogrammdan urug`lik kartoshka keltirilgan?

Yechish:

a) dalalarga necha qopdan kartoshka keltirilgan?

$45-5=40$

$40/2=20$  qop;

$20+5=25$  qop;

b) har bir qopda necha kilogrammdan urug`lik ketgan?

$70\times20=1400$ ;

$70\times25=1750$ ;

Javob: birinchi dalaga 1750 kg; ikkinchi dalaga 1400 kg.

*Masala 4.*

Sobirjon ijaraga yer olib issiqxona qurdi va pomidor yetishtirdi. Uning qaysi oyda necha kilogramm pomidor hosili olgani va 1 kg pomidorning narxi ushbu jadvalda berilgan:

Oy	Olingan hosil (kg)	1 kg pomidor narxi (so`m)

Yanvar	260	1200
Fevral	650	1000
Mart	750	800
Aprel	400	460

- a) Jami necha kilogramm pomidor hosili olingan?
- b) Har oyda necha so`mlik pomidor sotilgan?
- c) Jami necha so`mlik pomidor sotilgan?

Yechish:

- a)  $260+650+750+400=1660$  kg;
- b) Yanvarda  $260 \times 1200 = 312\ 000$  so`m;

Fevralda  $650 \times 1000 = 650\ 000$  so`m;

Martda  $750 \times 800 = 600\ 000$  so`m;

Aprelda  $400 \times 460 = 184\ 000$  so`m;

- c)  $312000+650000+600000+184000=1\ 746\ 000$ ;

*Masala 5.*

Ijarachi Sobirjonning qilgan xarajatlari:

- 1) Issiqxona qurilishiga sarflangan pul-500 000 so`m;
- 2) 1 qopi 200 so`mdan 120 qop o`g`it;
- 3) 1 donasi 30 so`mdan 1400 tup pomidor ko`chati;
- 4) Issiqxonani ma`lum temperaturada saqlash uchun sarflangan pul-300 000 so`m;
- 5) Ijara haqi-90 000 so`m;

Quyidagi savollarga javobni hisoblab toping:

- a) Issiqxonani qurish, isitish, o`g`it, ko`chat va ijara haqi uchun jami necha so`m sarflandi?
- b) Ijarachi issiqxonada yetishtirilgan pomidorni sotib, 1 746 000 so`mga ega bo`ldi. Bundan sarflangan jami pulni chiqarib tashlansa, unda qancha pul qoladi?

Yechish:

a)  $500000+300000+240000+42000+90000=1\ 172\ 000$

b) Pomidor ko`chati necha so`m?

$$1400 \times 30 = 42000$$

c) Sarflangan jami pulni chiqarib tashlansa, unda qancha pul qoladi?

$$1\ 746\ 000 - 42\ 000 = 1\ 704\ 000$$

*Masala 6.*

Mutal aka ijara ga yer olib, qulupnay ekdi. Sharhnomaga ko`ra, u xo`jalik hisobiga 5 tonna qulupnay topshirdi va qolganini bozorda sotdi. 500 so`mdan 360 kg, 400 so`mdan 800 kg, 320 so`mdan 1200 kg, 240 so`mdan 750 kg va 120 so`mdan 600 kg qulupnay sotildi. Mutal akaning oilasi necha so`m daromad oldi?

Yechish:

a) Mutal akaning oilasi necha so`m daromad oldi?

$$500 \times 360 = 180\ 000;$$

$$400 \times 800 = 320\ 000;$$

$$320 \times 1200 = 384\ 000;$$

$$240 \times 750 = 180\ 000;$$

$$120 \times 600 = 72\ 000;$$

$$180\ 000 + 320\ 000 + 180\ 000 + 72\ 000 = 1\ 136\ 000 \text{ so`m};$$

Javob: 1 136 000 so`m daromad oldi.

*Masala 7.*

Fermer xo`jaligida 1 kunda 1200 kilogrammdan 3 kun uzum uzuldi. Shundan 600 kilogramm maktab va bog`cha uchun berildi. Qolganini 10 kilogrammdan qilib, yashiklarga joylab shaharga jo`natildi. Shaharga necha yashik uzum jo`natilgan? Agar 1 kilogramm uzum 80 so`mdan sotilgan bo`lsa, necha so`mlik uzum sotilgan?

Yechish:

a) 3 kunda necha kilogramm uzum uzildi?

$$1200 \times 3 = 3600 \text{ kg};$$

b) shaharga necha yashik uzum jo`natildi?

$$3600 - 600 = 3000;$$

$$3000 : 10 = 300 \text{ ta yashik};$$

c) necha so`mlik uzum sotilgan?

$3000 \times 80 = 240\ 000$  so`mlik.

*Masala 8.*

To`g`ri to`rtburchakning perimetri 56 sm. Uning bir tomoni ikkinchisidan 8 sm uzun. Shu to`g`ri to`rtburchakning tomonlari uzunliklarini toping. Masalani ikki usulda yechish mumkin.

I usul:

a) to`g`ri to`rtburchak qo`shni tomonlari uzunliklarining yig`indisi necha santimetr?

$56 : 2 = 28$  sm;

b) to`g`ri to`rtburchak ikkita qisqa tomoni uzunliklarining yig`indisi necha santimetr?

$28 - 8 = 20$  sm;

c) to`g`ri to`rtburchakning qisqa tomoni uzunligi necha santimetr?

$20 : 2 = 10$  sm;

c) to`g`ri to`rtburchakning uzun tomoni necha santimetr?

$10 + 8 = 18$  sm;

Javob: to`g`ri to`rtburchakning tomonlari uzunliklari: 10 sm va 18 sm.

Tekshirish:  $10 + 10 + 18 + 18 = 56$  sm.

II usul:

to`g`ri to`rtburchakning bir tomoni (masalan, qisqa tomoni) uzunliklari x deb belgilasak, uzun tomoni  $x + 8$  bo`ladi. to`g`ri to`rtburchaklar qo`shni tomonlari uzunliklarining yig`indisi

$56 : 2 = 28$  sm;

Masala shartlariga mos tenglama tuzib yechamiz:

$$x + (x + 8) = 28$$

$$2x + 8 = 28$$

$$2x = 28 - 8$$

$$2x = 20$$

$$x = 20 : 2$$

x=10 sm

x+8=10+8=18 sm.

Javob: 10 sm va 18 sm.

## 2.2-§ Tejamkorlik iqtisodiyotning asosiy mezoni.

Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlar xalqimizning umuminsoniy mehnat, milliy an'alarini o'zlashtirib, o'zida katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini – g'oyaviy e'tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni o'rganishi, respublikamiz iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy qudratini mustahkamlashda katta yoshdagilarning shaxsiy namuna bo'lisi muhim ahamiyatga ega. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda insonning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Bolalarni hayotni tushunishga, ular voyaga yetganlarida ko'radigan qiyinchilik va muammolarni tushunishga tayyorlash zarur. Uyda yetarli sharoit yaratish, uyda to'la mo'l-ko'lchilik bo'lisi bolada mana shu mo'l-ko'lchilikka, uni o'rabi olgan barcha narsalarga to'g'ri munosabatda bo'lisi va bo'lmasligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Garchi qancha ota-onা bo'lsa, shuncha tarbiya maktabi mavjud bo'lsa-da, lekin o'z vaqtida berilgan maslahat, olib borilgan nozik kuzatish mutaxassislarning tajribasi yosh avlodning shakllanishida muhim rol o'ynashi mumkin. Bolalarni tejamkorlik va iqtisod qilishga o'rgatish chindan ham murakkab. Bunday uquvga, albatta osonlikcha erishilmaydi. Chunki, tejamkorlik shunchaki yirtmaslik, bulg'ammaslik, tashlab yubormaslik, sindirmaslik odati emas. Bu avvalo axloqiy fazilat, ma'naviy madaniyat ko'rsatkichidir. Bu fazilat bola uy uchun, oila uchun yasagan buyumidan astoydil mehnat qilish ko'nikmasigacha ona topshirig'i qilingan birinchi xariddan uy byudjeti qanday tarkib topishini tushunishiga imkon yaratadi. Keyinchalik davlat mablag'larini yaxshi hisob-kitob qilish uquviga ega bo'ladi. Bularning barchasi oiladan boshlanadi. Tejamkorlik saboqlarini bolalar kattalarga qaraganda tezroq qabul qiladi. Chunki bolalarda odat bo'lib qolgan ko'nikmalar yo'q. Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatları eng samarali rivojlanadi, uning ijobjiy imkoniyatlari ochiladi, bolani oiladan boshqa qayerda ham

faoliyatning xilma-xil turlariga jalg qilish mumkin? Oilaviy tarbiyaning qimmatligi va ahamiyati ana shundaki, kichik bolalik paytidan oilada egallagan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota – onalarning bolalarini har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan. Deyarli ko'pchilik tarbiya sabr – toqatni talab etishni e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb o'ylaydialr; lekin juda kam insonlar sabr – toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana mahsus bilimlar kerakligi haqida ishonch bilan ta'kidlaydilar.

Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta'qiqlashlar tizimi – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to'g'ri xatti-harakatli mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu tizim bolaning kattalar xohishiga salbiy munosabatni tug'diradi; bola mustaqilligining rivojlanishini susaytiradi.

Biz o'g'il-qizlarimiz o'zimizdan yahshiroq bo'lishini istaymiz. Bizning bu istagimiz o'zida o'z-o'zini tanqid qilish, tahlil qilish ehtiyoji ham o'z-o'zini takomillashtirish istagi mavjud.

Zamonaviy oilada xo'jalikni oqilona yuritish uchun shaxsiy madaniylikdan tashqari bir qator maxsus ko'nikmalarga ega bo'lmoq zarurdir. Bu oila xo'jaligini oqilona boshqara bilish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, pulni joy-joyida sarflashdan iborat.

Boy bo'lishning oltin qonuni, qilinadigan harajatlar qilinadigan daromaddan oshmasligi shart. Kimki, pulni ishlab topishdan ko'ra, uni ishlatish qiyin desa, u inson tez boy bo'ladi.

O'z uyida bekorga yonayotgan chiroqni o'chirmaydigan, behuda oqayotgan vodoprovod jo'mragini burab qo'ymagan, pulni pala-partish sarflayveradigan, axlat idishga non tashlaydigan, ishlab chiqarishda materiallarni tejamaydiganlar boy bo'lishi mushkul.

Non insonning eng katta ixtirosi bo'lib, uning yoshi 15000 yilga boradi. Bundan 5000 yil avval Qadimgi Misrda non pishirishning yangi davri boshlanadi. O'sha davr nonvoylari xamirni ko'p achitish, bilan g'ovak-g'ovak qilib non yopishni o'rganib oldilar. Zamonaviy non yopish ham xanuzgacha ana shunga asoslanadi,

“Oshirilgan xamirdan” non yopishni misrliklardan greklar o’rganib olishadi. Buhanka non tayyorlash uchun zarur bo’lgan tunuka qolip grekchasiga “klibos” deb atalgan, “xleb” so’zi ana shundan olingan ekan.

“Non—rizq-ro’zimiz” degan so’z O’zbekistonliklarning qulog’iga singib ketgan. Shuning uchun non insonni zoriqtirmaydigan darajada ko’p ishlab chiqariladi va eng arzon bahoda sotiladi. Har bir inson nonni e’zozlashi shart, don yetishtiruvchi dehqon va non yopuvchi nonvoy qadriga yetishi zarur. Agar to’rt jondan iborat bir oila har kuni 100 grammlik nonni isrof qiladigan bo’lsa, bu bir yilda 36 kilogrammni tashkil qiladi. Bu mamlakat miqyosida bir yilda 242 ming tonna non demak. Shuning uchun “nonning uvog’i ham non” deb bolalar qalbiga singdirish kerak. Shuni ham hisobga olish kerakki, non yopish unumsiz va og’ir mehnatdir.

Donni tejashning muhim imkoniyatlaridan biri nonning xilini ko’paytirish va to’qtutarligini orttirish hisoblanadi. Bunga erishmoq uchun esa non yopishda bug’doyning hamma qismlaridan, hatto kepakdan ham foydalanish, xamirga oqsillar, vitaminlar, ma’dan moddalari qo’shib qorish, shuningdek, ilg’or texnologiyani joriy etish zarur. Ortiqcha nonni sira tashlab yubormasdan undan foydalanish imkoniyatiga katta e’tibor qilish kerak. Qattiq non bo’tqasi, non quymoq, non sho’rva, non kvasi, olmali bobha tayyorlash usullarini o’rganib, uni iste’mol qilishni bolalarga tavsiya qilish kerak.

Hozirgi davrda xonadonimizni xolodilniklar, kir yuvish mashinalari, pol artqich, kofe maydalagichsiz tasavvur qilish qiyin. Elektr energiyadan tejamli foydalanish faqat maishiy elektr asboblaridan foydalanayotganlarningina emas, balki barchaning vazifasidir. Har bir insonning ongliligi elektr energiyani tejashning eng muhim omillaridan biri bo’lib qolmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 10 milliondan ortiq televizorlar o’rtacha 4 soat ishlasa, yilliga 3 mlrd. Kilovatt-soat elektr energiyasi sarf bo’ladi. Turmushda tejalgan bir kilovatt-soat elektr 5 kg o’simlik moyi, 14 kg un, 30 kg non – bulka mahsuloti ishlab chiqarish uchun yetarlidir. Agar kattalar bolalarga shaxsiy namuna ko’rsatib umumiy va mahalliy yoritqichlarni ratsional joylashtirish bilan yillik elektr energiya sarfini 7 – 10 million kilovatt-soatga qisqartirish mumkin.

Hozirgi kunda har bir uyda bra va torsherlar, stol lampalari va qandillar bor. Eng yaxshi xolda uning lampalarini alohida-alohida yoqish mumkin. Xonada shinamlik (komfort) oshirish maqsadida ma'lum joyni yoritadigan stol lampalari, torsherlardan foydalanilsa, elektr energiyasi tejaladi. Undan tashqari elektr choynakda bir litr suvni qaynatish uchun shuncha suvni oddiy chovgumda elektr plita ustiga qo'yib qaynatganda sarf bo'ladigan elektr energiyadan 2 marta kam energiya sarf bo'ladi.

Elektr energiyani tejash uchun avval past temperaturada dazmollahni talab qiladigan kiyimlarni dazmollab olish kerak.

Dunyo aholisi so'nggi 50 yil davomida 2,2 marta ortib 6,5 mlrd. dan oshdi. Suvga bo'lgan talab 2,6 marta ko'paydi, uning 80 foizi ( $2504 \text{ km}^3$ ) qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflanmoqda. Toshkent shahar aholi jon boshiga bir kunda 550 litr, Farg'ona shahrida 320 litr, Marg'ilon shahrida esa 1200 litr suv ishlatmoqda. Iste'mol uchun oziq-ovqat tarkibidagi suvni hisobga olgan uning me'yori 1,5 – 2,5 litr bo'lishi kerak. Turmushda suvni tejash hisobiga bir necha mlrd. so'mni tejash mumkin. Yer sharidagi chuchuk suv zaxirasi cheklangan bo'lib, umumiylar 2,5 foizini tashkil qiladi xolos.

Maishiy qulaylik qancha yuqori bo'lsa, inson omili shunchalik hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Aytaylik, suvni quduqdan chelaklab tashib ishlatsak, hayot uchun zarur bo'lgan suv sarfi jon boshiga (sug'orishni hisobga olmaganda) 25 – 40 litrni tashkil etadi. Sanuzellar bilan jihozlangan vodoprovoddan foydalanganda esa 250 – 330 litr va hatto bundan ham ortiq bo'ladi.

Bolaga oila byudjetining nozik tomonlari uning o'ziga taalluqli narsalardan uni xabardor qilish bilan boshlanadi.

Bola uning uchun olinadigan bir dona muzqaymoq bilan butun oila olinadigan baton nonining qiymati bir xil ekanligini bilish kerak, bolalarni konkret misollar orqali qiyoslashga baho berishga o'rgatish kerak.

Ota va ona bolaga eng avvalo, o'zlarining kasb-hunarlariga qiziqtirish, ota payvandlashni, ona tikuvchilikni va boshqa kasblarni farzandlariga o'rgata borishi ahamiyatlidir. Bu yosh insonda tejamli va saranjom-sarishtali, o'z Vatani boyliklarini

ehtiyyot qila oladigan, inson mehnati bilan yaratilgan narsalarini qadriga yetadigan qilib tarbiyalash hamdir.

Matematika darslarida tejamkorlikka o'rgatuvchi masalalar yechish muhim o'rinni tutadi. Quyida shunday masalalardan namunalar keltiramiz:

### **Masala 1.**

O'quvchilar o'tgan yili 4 t 7 sr temir – tersak to'plagan edi. Bu yilgi to'plangan temir – tersak bilan hammasi 10 t 3 sr bo'ldi. O'quvchilar bu yil qancha temir – tersak to'plashgan?

Yechish:

Bu yil temir – tersak to'plashganligi ayirish amali bilan topiladi.  $10 \text{ t } 3 \text{ sr} - 4 \text{ t } 7 \text{ sr} = 5 \text{ t } 6 \text{ sr}$ . Shu ma'lumotlar asosida yana 2ta masala tuzish mumkin:

a) o'quvchilar o'tgan yili 4 t 7 sr, bu yil esa 5 t 6 sr temir – tersak to'plashgan bo'lsa, ular ikki yilda jami qancha temir – tersak yig'ishgan?

b) o'quvchilar bu yil 5 t 6 sr temir – tersak to'plashdi. O'tgan yilgi bilan birga hammasi 10 t 3 sr bo'ldi. O'tgan yili qancha temir – tersak to'plangan?

Yechish:

a)  $4 \text{ t } 7 \text{ sr} + 5 \text{ t } 6 \text{ sr} = 10 \text{ t } 3 \text{ sr}$

b)  $10 \text{ t } 3 \text{ sr} - 5 \text{ t } 6 \text{ sr} = 4 \text{ t } 7 \text{ sr}$

### **Masala 2.**

Buzuq jo'mrakdan bir soatda 18 l suv oqib ketmoqda. Shu jo'mrakdan: bir sutkada, 30 kunda qancha litr suv bekorga oqadi?

Yechish:

a) jo'mrakdan 1 sutkada qancha suv oqadi?

$$18 \text{ l} * 24 = 432 \text{ l}$$

b) 30 kunda qancha suv oqadi?

$$30 * 24 = 720$$

$$720 * 18 \text{ l} = 12960 \text{ l.}$$

### **Masala 3.**

Binoda ehtiyoj bo'lmasa-da, bir kuni 2 soat davomida lampochkalar yoniq qolgan. Bunga ikki kilovatt-soat elektr quvvati sarflanadi. Bunday binolar shaharda 2500 ta

ekanligi aniqlandi. Bir kilovatt-soat elektr quvvati 11 so'm 30 tiyin bo'lsa, bir soat davomida necha so'm behuda sarflangan?

Yechish:

a) binolardagi lampochkalar necha soat yoniq qolgan?

$$2500 * 2 = 5000 \text{ soat.}$$

b) bir soat davomida necha so'm behuda sarflangan?

$$11 \text{ so'm} 30 \text{ tiyin} = 1130 \text{ tiyin}$$

$$1130 * 2500 = 2825000 \text{ tiyin} = 28250 \text{ so'm.}$$

#### **Masala 4.**

Maktab kutubxonasidagi 64800 ta kitobni ta'mirlash kerak. Bu ishni 6 – sinf o'quvchilari 12 kunda, 5 – sinf o'quvchilari 15 kunda, 4 – sinf o'quvchilari esa 20 kunda bajara oladi. Uchala sinf o'quvchilari birgalikda bu vazifani necha kunda bajara oladi?

Yechish:

Uchala sinf o'quvchilari birgalikda bu vazifani necha kunda bajara oladi?

$$12 + 15 + 20 = 47$$

Javob: 64800 ta kitobni 47 kunda ta'mirlashadi.

#### **Masala 5.**

Nargiza bir o'quv yilida 18 ta katak daftar tutdi. Uning sinfdoshi Dilfuza 20 ta shunday daftarni to'ldirdi. Agar 1 ta daftar 50 so'm tursa, Nargiza necha so'm tejagan? (Berilgan masalaga teskari masala tuzib yeching.)

Yechish:

Nargiza necha so'm tejagan?

$$20 - 18 = 2 \quad 2 * 50 = 100$$

Javob: 100 so'm

Nargiza bir o'quv yilida 18 ta Dulfuza 20 ta daftar to'ldirishdi. 1 ta daftar 100 so'm bo'lsa ular qancha so'm sarflashgan?

Yechish:

a) Nargiza necha so'm sarflagan?

$$18 * 100 = 1800 \text{ so'm}$$

b) Dilfuza necha so'm sarflagan?

$$20 * 100 = 2000 \text{ so'm}.$$

### Masala 6.

Chevar ayol shogird qizi bilan birgalikda 4 soatda 68 ta qiyiqcha tikdi. Agar ona 1 soatda 12 ta qiyiqcha tiksa, qizi 1 soatda nechta qiyiqcha tikkan? Masalani ikki usulda yeching.

Yechish:

a) ona 4 soatda nechta qiyiqcha tikkan?

$$12 * 4 = 48 \text{ ta.}$$

b) qizi 1 soatda nechta qiyiqcha tikkan?

$$68 - 48 = 20$$

$$20 : 4 = 5 \text{ ta qiyiqcha.}$$

### Masala 7.

Ona do'kondan narxi 400 so'mlik konfetdan 1 kg va narxi 500 so'mlik konfetdan ham 1 kg konfet oldi. 1 kg konfetning o'rtacha narxi qancha bo'ladi?

Yechish:

1) ona hammasi bo'lib necha kilogramm konfet oldi?

$$1 \text{ kg} + 1 \text{ kg} = 2 \text{ kg.}$$

2) ona konfetlar uchun jami necha so'm to'ladi?

$$400 \text{ so'm} + 500 \text{ so'm} = 900 \text{ so'm.}$$

3) bir kilogramm konfetning o'rtacha narxi necha so'm bo'ladi?

$$900 \text{ so'm} : 2 = 450 \text{ so'm.}$$

Javob: 1 kg konfetning o'rtacha narxi 450 so'm.

### Masala 8.

1) agar 1 ga yerda 1 kg dan paxta hosili chanoqlarda qolib ketsa, 1 000 000 ga yerdan qancha hosil yo'qotamiz?

2) agar 1 ga yerda 1 kg dan g'alla qolib ketsa, 100 000 ga yerdan qancha g'alla yo'qotamiz?

3) agar 1 ga yerda 100 kg kartoshka qolib ketsa, 100 ga yerdan qancha kartoshka yo'qotamiz?

Yechish:

- 1)  $1\ 000\ 000 \text{ kg} = 1000 \text{ tonna}$
- 2)  $100\ 000 \text{ ga} = 100 \text{ tonna}$
- 3)  $100 * 100 = 10\ 000 \text{ kg} = 10 \text{ tonna}$

### Masala 9.

Bir tup daraxtdan 100 kg qog'oz tayyorlash mumkin, deylik. Agar 4 – “A” sinf o'quvchilari 1380 kg va 4 – “B” sinf o'quvchilari 1520 kg qog'oz qiyqimlari to'plagan bo'lsa, hammasi bo'lib necha tup daraxt kesishdan saqlab qolingan?

Yechish:

- a) 4 – “A” sinf o'quvchilari necha tup daraxtdan qog'oz tayyorlashgan?  
4 – “B” sinf o'quvchilarichi?

$$1380 + 1520 = 2900$$

$$2900 : 100 = 29 \text{ tup.}$$

Javob: 29 tup daraxt.

### Masala 10.

Dinora matematikadan 96 ball, ona tilidan 100 ball va chet tilidan 95 ball oldi. U o'rtacha necha ball olgan?

Yechish:

- a) Dinora jami necha ball to'plagan  
 $96 + 100 + 95 = 291$   
b) u o'rtacha necha ball olgan?  
 $291 : 3 = 77 \text{ ball.}$

### Masala 11.

Agar oila bir kunda 1 metr kub gazni tejasa, u bir oyda qancha gazni tejaydi? 1 metr gaz 94 so'm bo'lsa, oila 1 oyda qancha oila daromadini tejaydi?

Yechish:

- a) 1 oyda oila 30 kub metr gazni tejaydi.  
b) Oil 1 oyda qancha pulni tejaydi?

$$30 * 94 = 2840 \text{ so'mni tejaydi.}$$

### **2.3 § Tajriba - sinov ishlari**

1. 4-sinfdag'i iqtisodiy munosabatlarni quyidagi bo'limlar bo'yicha o'rganib chiqildi. Bularidan ba'zi bir namunalar keltiramiz:

#### **Oila daromadiga doir masalalar**

**28.** 5 ta sigirdan kuniga baravardan hammasi bo'lib 50 l sut sog'ib olindi. Xuddi shunchadan sut beradigan nechta sigirdan 90 l sut sog'ib olish mumkin?

**36.** Bir tup behi daraxtidan 12 kg, ikkinchi daraxtdan 18 kg behi terib olindi. Hamma behi 6 kg dan qilib yashik-larga joylandi. Buning uchun nechta yashik kerak bo'lgan? (Masalani ikki usul bilan yeching.)

10- bet

**52.** Oshxonada 58 kg no'xat va undan 19 kg ko'p guruch ishlatildi. Hammasi bo'lib qancha don mahsuloti ishlatilgan?

15- bet

**75.** Omborga 54 yashik olma va 36 yashik nok keltirildi. Ertalab do'konlarga 45 yashik ho'l meva jo'naltildi. Omborda necha yashik ho'l meva qolgan?

17- bet


84. Bir tovuqning 15 ta, ikkinchisining unga qaraganda 6 ta ko'p, uchinchisining esa ikkinchisiga qaraganda 3 marta kam jo'jası bor. Uchinchi tovuqning nechta jo'jası bor?

61- bet

295. Uy bekasi tomorqadan tushlikkacha 4 chelak, tushlikdan so'ng yana 2 chelak pomidor terib oldi. Uning tergan hamma pomidorlari 60 kg chiqdi. Uy bekasi tushlikkacha necha kilogramm pomidor tergan? Tushlikdan keyin-chi?

84- bet

386. Yusuf 3 banka, Salim 5 banka olma sharbati sotib oldi. Shu xarid uchun Salim Yusufga qaraganda 1400 so'm ko'p pul to'ladi. 1 banka olma sharbati qancha turadi? Yusuf qancha pul to'lagan? Salim qancha pul to'lagan?



Yechilishi:

- 1)  $5 - 3 = 2$  (banka)
- 2)  $1400 : 2 = 700$  (so'm)
- 3)  $700 \cdot 3 = 2100$  (so'm)
- 4)  $700 \cdot 5 = 3500$  (so'm)

Tekshirish:

$$\begin{array}{r}
 3500 \\
 - 2100 \\
 \hline
 1400
 \end{array}$$

Har bir amalni bajarish bilan nimani bilib oldingiz?

88- bet

400. Tomorqadan har biri 11 kilogrammdan 4 yashik bodring va 5 ta bir xil yashikda pomidor terib olindi. Hammasi bo'lib 89 kg pomidor va bodring terib olindi. Har bir yashikka necha kilogrammdan pomidor joylangan?

116- bet

- 520.** Qopda 48 kg sabzi bor edi. 4 kun har gal baravardan sabzi olinganidan so'ng qopda 32 kg sabzi qoldi. Har kuni qopdan necha kilogrammdan sabzi olingan?

121- bet

- 564.** Bir egatdan 3 qop kartoshka, ikkinchi egatdan shunday 4 qop kartoshka olindi. Hamma kartoshkaning massasi 315 kg. Har qaysi egatdan necha kilogrammdan kartoshka olingan?

170- bet

- 805.** Bir jo'yakdan 46 qop, ikkinchisidan esa 54 qop piyoz yig'ib olindi. Birinchi jo'yakdan ikkinchisiga qaraganda 440 kg kam piyoz yig'ib olindi. Har bir jo'yakdan necha kilogrammdan piyoz olindi?

177- bet

- 852.** Ota va ikki o'g'il 24 tup ko'chat ekishdi. Ota ikki o'g'li qancha ko'chat ekkan bo'lsa, shuncha ko'chat ekdi. O'g'illar esa o'zaro teng sonda ko'chat ekishdi. Har qaysi o'g'il nechtadan ko'chat ekkan?

183- bet

- 11.** Uy qurilishiga 632 400 dona g'isht ketadi. Agar bu g'ishtni 620 ta yug'ma panel bilan almashtirilgan bo'lsa, bitta panel nechta g'ishtning o'rnini bosadi?

184- bet

- 15.** Masalalarni va ularning yechilishlarini taqqoslang:
- 1) Dasturxonda 6 ta non bor edi. Yana bir necha non qo'yilgandan keyin 14 ta non bo'ldi. Nechta non qo'yilgan?
  - 2) Dasturxonga 14 ta non qo'yish kerak edi. 6 ta non qo'yildi. Yana nechta non qo'yish kerak?
  - 3) Dasturxonga 6 ta non qo'yilgandan keyin yana 8 ta non qo'yish qoldi. Hammasi bo'lib nechta non qo'yish kerak edi?

## 2. Hunarmandchilikka doir masalalar

6- bet masala (4- bet)

Tikuvchilik firmasida 7 ta ko'ylik tikish uchun 21 m mato sarflandi. 9 ta shunday ko'ylik tikish uchun necha metr mato kerak bo'ladi?

10- bet

- 51.** Bosmaxonada 318 nafar erkak va ulardan 42 nafar kam ayol ishlaydi. Bosmaxonada hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi?

14- bet

- 68.** Tanlovga 48 ta oq-qora tasvirli va undan 4 marta kam rangli fotosuratlar yuborildi. Tanlovga hammasi bo'lib nechta fotosurat yuborilgan?

16- bet

- : 79.** Yosh tabiatshunoslar 12 kg massali qovoq va 6 kg massali qovun yetishtirdilar. Qovoq qovundan qancha og'ir? Qovunning massasi qovoqning massasidan necha marta kam?

19- bet

- 96.** Gul do'koniga gullar keltirildi. Hamma gulning uchdan bir qismi – chinni gullar. Ular 30 ta edi. Do'koniga hammasi bo'lib qancha gul keltirildi?

22- bet

- 110.** Ikki duradgor 5 kun bir xil ishlab 80 ta stolni ta'mir-lashdi. Bir duradgor bir kunda nechta stolni ta'mir-lagan?

22- bet

- 112.** Qurilishga 150 t sement, sementdan 4 marta ko'p qum keltirildi. Sementdan necha tonna ko'p qum keltirilgan?

- 288.** 1) 5 ta palto va 4 ta plashga baravardan 54 ta tugma qadaldi. Har bir kiyimga nechtadan tugma qadaldi?



- 2) 5 ta palto va 4 ta plashga 54 ta tugma baravardan qadaldi. Hamma paltolarga va hamma plashlarga nechtadan tugma qadaldi?

60- bet

79- bet

- 369.** G'isht teruvchi bir kunda 1000 ta g'isht terishi kerak. U kunning birinchi yarmida 487 ta g'isht teradi, bu uning kunning ikkinchi yarmida teridan 18 ta kam. Gisht teruvchi kunlik rejani bajarganmi?

94- bet

- 429.** Ombordan har birida 7 kg bo'lgan 32 yashik pecheniy va har birida 9 kg bo'lgan bir nechta yashik konfet jo'natildi. Hammasi bo'lib pecheniy va konfetlardan birgalikda 449 kg jo'natildi. Necha yashik konfet jo'natilgan?

### 3. Bahos, miqdor va pulga doir masalalar:

12- bet masala (5- bet)

12. Sabzavot omborida bir kunda 600 banka bodring, undan 2 marta kam pomidor tuzlandi. Quyidagi ifodalar nimani anglatadi:

$$600 : 2 \quad | \quad 600 + 600 : 2 \quad | \quad 600 - 600 : 2$$

17. 1) O'yinchoqlar do'konida 849 ta archa o'yinchoqlari sotildi. Bu necha yuzlik, o'nlik va alohida birlikklardan iborat?

2) Do'konda 6 ta yuzlik va 8 ta o'nlik archa o'yinchoqlari sotildi. Nechta o'yinchoq sotilgan?

19. Do'konda xaltachalarga solingan 280 kg pecheniy keltirildi. Har bir xaltachada 2 kg dan pecheniy solingan. Hafta oxirida 40 kg pecheniy qoldi. Necha xaltacha pecheniy sotilgan?

23. Do'konga 100 ta kitob keltirildi. Kun bo'yi ularning beshdan bir qismi sotildi. Shu kuni nechta kitob sotilgan?

30. 10 ta bir xil xaltachaga 20 kg un solingan. 60 kg unni solish uchun shunday xaltachadan nechta kerak bo'ladi?

40. Maktab atrofiga 70 ta terak va archa ko'chatlari o'tqazildi. Agar archa ko'chatlari terak ko'chatlaridan 20 ta ko'p bo'lsa, nechta terak va nechta archa ko'chati o'tqazilgan?

42. Kutubxonada 95 ta kitob bor edi. 9 o'quvchi 4 tadan kitob oldi. Kutubxonada nechta kitob qoldi?

8- bet

45. Tikuvchi 8 ta paltoga 5 tadan va 7 ta paltoga 4 tadan tugma qadadi. Tikuvchi hammasi bo'lib nechta tugma qadagan?

14- bet

- 67.** Do'konda 200 ta katakli va ulardan 3 marta ko'p bir chiziqli daftar bor. Do'konda hammasi bo'lib nechta daftar bor?

18- bet

- 86.** Sayyohlar velosipedda 32 km yurishdi. Bu ular piyoda bosib o'tgan yo'lidan 4 marta ko'p. Sayyohlar bosib o'tgan butun yo'lning uzunligi necha kilometrga teng?

20- bet

- 98.** 120 o'quvchi xo'jalikka paxta yig'im-terimida, ulardan 3 marta kam o'quvchi poliz mahsulotlarini yig'ib olishda yordamlashdi. Xo'jalikka hammasi bo'lib necha nafar o'quvchi yordam bergen?

48- bet

- 219.** Xaridor bir kilogrami 400 so'mdan 2 kg kartoshka va 160 so'mga lavlagi sotib oldi U sotuvchiga 1000 so'm berdi. Xaridor qancha qaytim olishi kerak?

73- bet

- 335.** Mehnat darsi uchun 900 so'mga har bir varagi 90 so'mdan oq qog'oz va 1 200 so'mga har bir varagi 100 so'mdan rangli qog'oz sotib olindi. Mehnat darsi uchun hammasi bo'lib necha varaq qog'oz sotib olindi?  
Masalani ifoda tuzib yeching.  
Masalaning savolini shunday o'zgartiringki, u quyidagi ifoda bo'yicha yechilsin:

$$1200 : 100 - 900 : 90$$

87- bet


- 394.** Yangi yil archasi uchun Nasiba 7 ta bir xil narxli o'yinchoq, Karima esa shunday 9 ta o'yinchoq sotib oldi. Xarid qilgan o'yinchoqlar uchun Karima Nasibaga nisbatan 1060 so'm ko'p pul to'ladi. Nasiba xarid qilgan o'yinchoqlar uchun qancha pul to'lagan? Karima xarid qilgan narsalari uchun qancha pul to'lagan?

112- bet

- 14.** Omborda 5 sr 04 kg shakar 9 ta bir xil qopda saqlə nardi. Shundan 5 qopi do'konga jo'natildi. Do'kong necha kilogramm shakar jo'natilgan?

137- bet

- 10.** «Kim cho'qqiga tezroq chiqadi?» o'yin-estafetasi.



142- bet

- 668.** Xaridorda 1 000 so'm pul bor edi. U 190 so'mdan 3 kg olma va shu narxda 2 kg pomidor sotib oldi. Unda qancha pul ortib qoldi? Masalani turli usullar bilan yeching.

173- bet

- 826.** Maktab uchun televizor, magnitofon va kompyuter sotib olinib, hammasiga 408 000 so'm to'landi. Agar televizorning bahosi 112 000 so'm, televizor bilan magnitofon birgalikda 211 000 so'm tursa, magnitofon qancha turadi va kompyuter qancha turadi?

175- bet

- 836.** Sabzavot omboriga 3 t sabzavot keltirildi: 950 kg karam, karamga qaraganda 300 kg ortiq pomidor, qolgani esa kartoshka. Omborga necha kilogramm kartoshka keltirilgan?

176- bet

- 845.** Bog'da tushgacha 444 kg, tushdan keyin 348 kg nok terildi. Terilgan noklar 12 kg dan qilib yashik-larga joylandi. Nechta yashik kerak bo'lgan?

178- bet

**853.** Ko'p qavatli uydagi romlarga oyna solish uchun 486 ta oyna ketdi. Dam olish uyidagi romlarga 432 ta oyna ishlataldi. Dam olish uyida ko'p qavatli uyga qaraganda romlar 9 ta kam. Hammasi bo'lib nechta romga oyna solingan?

178- bet

**856.** Bir do'konga 432 kg konfet 27 ta bir xil yashikda keltirildi. Ikkinci do'konga xuddi shunday yashiklarda 848 kg konfet keltirildi. Ikkinci do'konga necha yashik konfet keltirilgan?

178- bet

**859.** Tirkamali avtomashinada 1 080 sr sabzini tashish kerak. Har safar mashinaga 30 sr va tirkamaga undan 2 marta kam sabzi ortiladi. Hamma sabzini tashish uchun shu mashina necha marta qatnashi kerak?

181- bet

**873.** Ikki guruh o'quvchilar mevali daraxtlar ekish uchun chuqurchalar kovladilar. I guruh o'quvchilari 100 ta chuqurcha kovladilar, bu II guruh kovlaganidan 10 ta kam. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta chuqurcha kovlagan?

181- bet

**877.** Do'konda 96 ta ayollar va 75 ta erkaklar kastumi bor edi. Kun davomida ayollar kastumining yarmi va erkaklar kastumining uchdan bir qismi sotildi. Qaysi kastumdan ko'p sotildi va qancha ko'p sotildi?

188- bet

**15.** Uchta bir xil yashikda 39 kg olxo'ri bor. 104 kg olxo'rini joylash uchun shunday yashiklardan nechta kerak bo'ladi?

188- bet

- 16.** O'quvchilar 55 ta daraxt ko'chati o'tqazdilar. Ko'chatlardan 27 tasini mакtab bog'iga, qolganlarini esa har bir qatorga 7 tadan qilib sport maydonchasi atrofiga o'tqazdilar. Sport maydonchasi atrofiga necha qator ko'chat o'tqazdilar?

188- bet

- 17.** Ekinlarni sig'orish uchun 39 chelak suv tayyorlab qo'yildi. Har bir jo'yakka 4 chelakdan suv quyilgandan so'ng yana 3 chelak suv ortib qoldi. Nechta jo'yak sug'orilgan?

188- bet

- 18.** Kitob 140 betli. Lola kitobning yarmini va yana 5 bet o'qidi. Lola yana necha bet o'qishi kerak?

188- bet

- 21.** Bola o'zida bor pulning uchdan biri — 120 so'mga daftар sotib oldi. Bolada avval necha so'm bo'lган?

188- bet

- 24.** Maktab hovlisining bo'yи 28 m, eni esa 23 m. Maktab atrofini o'rash uchun necha metr uzunlikdagi devor kerak?

189- bet

- 5.** Vagondan 380 sr ko'mir tushirildi. Shundan keyin vagonda tushirilganidan 119 sr ko'p ko'mir qoldi. Dastlab vagonda qancha ko'mir bo'lган?

#### **4. Tejamkorlikka doir masalalar:**

- 14.** Shahar bozoriga 3 mashina tarvuz jo'natildi. Bir mashinada 150 ta, ikkinchi mashinada birinchidagidan 50 ta ko'p, uchinchi mashinada esa birinchi va ikkinchi mashinalarda birgalikda qancha bo'lsa, shuncha tarvuz bor. Uchinchi mashinada qancha tarvuz jo'natilgan?

8- bet

- 43.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydoncha atrofini simto'r bilan o'rab olish kerak. Agar maydonchaning bo'yि 8 m, eni 7 m bo'lса, necha metr simto'r kerak bo'ladi?

16- bet

- 76.** Matabning mevali bog'ini barpo etishda 30 nafar o'quvchi ishladi. 5 nafar o'quvchi ko'chat o'tqazish uchun chuqurcha qazidi, 8 o'quvchi suv keltirdi. Qolgan o'quvchilar qazilgan chuqurchalarga ko'chat o'tqazdilar. Necha nafar o'quvchi ko'chat o'tqazgan?

19- bet

- 95.** Said har biri 129 so'mdan 3 ta daftar va 950 so'm turadigan 1 ta kitob sotib oldi. Said hammasi bo'lib necha so'm to'ladi?

26- bet

- 132.** Bir qop shakarning massasi 50 kg. Do'konda tushlik-kacha 3 qop va tushlikdan keyin shunday 5 qop shakar sotildi. Shu kuni hammasi bo'lib necha kilogramm shakar sotilgan?

26- bet

- 133.** Do'konda 280 kg un bor edi. Kechqurun 60 kg un qoldi. Necha kilogramm un sotilgan?  
Bu masalaga teskari masala tuzib (og'zaki) yeching.

27- bet

- 138.** 3 ta bir xil tugmacha uchun 120 so'm to'landi. 100 ta shunday tugmacha uchun necha so'm to'lash kerak?

27- bet

- 139.** Kutubxonaga birinchi kuni 4 bog'lamda 56 ta, ikkinchi kuni shunday bog'lamda 42 ta kitob olib kelindi.  
Ikkinci kuni necha bog'lam kitob olib kelingan?

29- bet

8. Do'konga har birida 45 kg dan 9 qop un olib kelindi. Bir kunda 2 kg dan 20 ta xaltacha va 3 kg dan 15 xaltacha un sotildi. Quyidagi ifodalar nimani anglatishini tushuntiring:

$$45 \cdot 9 \quad | \quad 2 \cdot 20 \quad | \quad 3 \cdot 15 \quad | \quad 2 \cdot 20 + 3 \cdot 15$$

29- bet

12. To'pda 95 m beqasam bor. Undan bir xaridorga 23 m, ikkinchi xaridorga 37 m sotilgandan keyin to'pda necha metr beqasam qoldi? Masalani ikki usulda yeching.

74- bet

342. «Neksiya» yengil mashinasida 2 soatda 16 / benzin sarflandi. 80 / benzin necha soat yurishga yetadi?

81- bet

10. 1 sr 80 kg bodring 12 ta bir xil savatga baravardan joylandi. 3 sr bodringni joylash uchun shunday savatlardan nechta kerak bo'ladi?

Biz har kuni duch keladigan 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarni, ular ustida bajariladigan amallar qoidalari va boshqa ko'p arifmetik qonunlarni fanga birinchilardan bo'lib vatandoshimiz buyuk matematik al-Xorazmiy (783–850- y.) kiritgan. Uning matematikaga doir bir qator asarlari o'sha paytda boshqa tillarga tarjima qilinib, uzoq vaqtgacha Yevropa universitetlarida hisob ilmidan darslik vazifasini bajarib kelgan.



Al-Xorazmiy matematikaga doir juda ko'p risolalar yaratgan. Buyuk bobokalonimiz al-Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

129- bet


- 607.** 1) 10 litr sutdan 2 kg qaymoq olinadi. 50 litr sutdan necha kilogramm qaymoq olinadi?  
 2) 100 kg undan 135 kg non yopiladi. 500 kg undan necha kilogramm non yopiladi?

129- bet

- 608.** Novvoyxonaga tushgacha 4 200 kg va tushdan keyin 2 800 kg un keltirildi. Hamma un 100 qop bo'ldi. Novvoyxonaga tushgacha necha qop va tushdan keyin necha qop un keltirilgan?

130- bet

- 615.** «Neksiya» avtomobili 100 km yo'lga 8 l benzin sarflaydi. U 400 km yo'lga necha litr benzin sarflaydi?



130- bet



- 616.** O'quvchilarning ikkita guruh 8 savat sabzi terdi. Birinchi guruh 39 kg, ikkinchi guruh 65 kg sabzi terdi. Har qaysi guruh necha savat sabzi terdi?

132- bet

- 620.** Ikkita avtomashinada 80 t kartoshka keltirildi. Birinchi mashinada 30 t, ikkinchisida esa qolgan kartoshka keltirildi. Mashinalar bir xil yuk oladi. Mashinalar hammasi bo'lib 16 marta qatnadi. Har bir mashina necha marta qatnagan?

161- bet

- 762.** Ko'chaning uzunligi 600 m, eni esa 12 m. Shu ko'chaga asfalt yotqizildi. Har  $100 \text{ m}^2$  ga 3 t asfalt ketdi. Butun ko'chaga qancha asfalt kerak bo'lgan?

162- bet

**763.** Bir oshxonaga bir xil qoplarda 150 kg, ikkinchi oshxonaga 90 kg don mahsulotlari keltirildi. Ikkinchi oshxonaga birinchidagidan 2 qop kam mahsulot keltirildi. Har bir oshxonaga necha qop don mahsulotlari keltirilgan?

175- bet

**837.** Maktab ustaxonasi uchun oldin 15 ta, keyin 8 ta bol g'acha olindi. Keyingi safar avvalgidan 1120 so'm kam pul to'landi. Bitta bolg'acha qancha turadi?

### 5. Ijara hisobiga doir masalalar:

112- bet

**13.** Yosh tabiatshunoslar bir maydondan 473 kg, ikkinchisidan unga qaraganda 3 marta ko'p piyoz yig'ishtirib oldilar. Yosh tabiatshunoslar birinchi maydondan ikkinchisiga qaraganda qancha kam piyoz yig'ishtirib olganlar?

113- bet

**19.** Fermer xo'jaligi davlatga 930 t sabzavot sotdi. Sabzavotlarning yarmi kartoshka. Karam esa kartoshkadan 187 t kam, qolgani – sabzi. Davlatga necha tonna sabzi sotilgan?

119- bet

**544.** Kinoteatr katta zalining har birida 28 o'rindiqdan 30 qator, kichik zalining har birida 18 o'rindiqdan 20 qator bor. Kinoteatrning ikkala zalida hammasi bo'lib nechta o'rindiq bor?

133- bet

**626.** Maktab hovlisida gulzor uchun  $60 \text{ m}^2$  yer ajratildi. Bu butun hovlining beshdan bir qismini tashkil etadi. Butun maktab hovlisining yuzi qancha?

140- bet

**660.** Xo'jalikka yordam berish uchun yuqori sinflardan 50 o'quvchi olma terimiga chiqdi va har bir o'quvchi 20 savatdan olma terdi. Agar bir savatga 10 kg olma sig'sa, o'quvchilar hammasi bo'lib necha kilogramm olma terganlar?

Masalani turli usullar bilan yeching.

140- bet

**661.** Traktorchi ishni soat 6-yu 30 minutda boshlab, uni 20-yu 15 minutda tugatdi. U 1 soat 45 min dam oldi. Traktorchi necha soat ishlagan?

148- bet

**701.** Yozgi oromgohda bir oyda turli don mahsulotlaridan 83 kg sarflandi. Guruch 36 kg, grechka yormasi 2 marta kam sarflandi. Sarflangan mahsulotning qolganini mosh tashkil etdi. Necha kilogramm mosh sarflangan?

172- bet

**819.** O'quvchilar ikkita maydonga pomidor ko'chati ekishi-di. Birinchi maydonga ikkinchisiga qaraganda 720 tup ortiq ko'chat ekildi. Agar birinchi maydonning yuzi  $500 \text{ m}^2$  va ikkinchi maydonning yuzi  $320 \text{ m}^2$  bolsa, har qaysi maydonga necha tupdan pomidor ko'chati ekilganini hisoblang.

## **Xulosa va tavsiyalar**

O`tkazilgan tajriba – sinov ishlari natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalarni berishni lozim topdik:

1) Iqtisodiy munosabatlarni shakllantiuvchi masalalarini quyidagi bo`limlarga ajratib o`rganish maqsadga muvofiqdir:

- a)baho, miqdor va pulga doir masalalar;
- b)oila daromadiga doir masalalar;
- v) hunarmandchilikka doir masalalar;
- d) ijara hisobiga doir masalalar;

2) o`quvchilarni iqtisodiy munosabatlar haqidagi asosiy tushunchalari haqida ma`lumot berish maqsadga muvofiq bo`ladi (baho, tannarx, sarflangan harajat, pul va hakazo )

Darslikda tejamkorlikka doir masalalar juda kam uchraydi. Hozirgi davrda muqobil energiyadan foydalanishga katta e`tibor berilayotganligi sababli “ummon oldida bo`lsang ham har bir tomchi suvni isrof qilma”- degan hikmatli so`zga doimo amal qilish kerak. Shu sababali gaz, elektr energiyasi va suvni tejashta doir masalalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Masalan, agar 6 ta cho`g`lanma lampochka bor xonodon bir oyda 24 ming so`m to`lasa, bitta akfa lampochka 3 ta cho`g`lanma lampochka sarflagan elektr energiyasini sarflasa bir oyda oila qancha daromad qiladi.

2. Tomorqadan olinadigan, oila daromadiga doir quyidagi ko`rinishdagi masalalarни kiritish yaxshi samara beradi.

Masalan , a) bir tup limondan o`rtacha 220 dona limon olinsa va har bir limon 500 so`mdan sotilsa, oila bir tup limondan qancha daromad qiladi ?

b)agar bir qo`y bir kunda  $6\ kg$  yem yesa, yem narxi 900 so`m bo`lsa, u bir oyda necha so`mlik yem yeydi?

v) 50 ta tovuq bir kunda 30 ta tuxum tug`sа va bitta tuxum o`rtacha 500 so`m tursa oila bir yilda necha so`mlik tuxum sotadi?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I. A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”, T – 1998.
2. I. A. Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”, T – 1998.
3. I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, T – 1998.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyayevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma`ruzasi. – Farg`ona haqiqati 2016 yil 10-dekabr
5. Sh. M. Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak” T – 2017 .
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so’zi 2017 yil 23-dekabr soni .
7. Bikbayeva N. U, Sidelnikova R. I, Adambekova G. A “Boshlang’ich sinflarda maematika o’qitish metodikasi”, T – 1996.
8. Jumayev M. E. “Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasidan laboratoriya mashg’ulotlari” T –2008.
9. Jumayev M. E. “Matematika o’qitish metodikasidan praktikum” T – 2003.
- 10.Tadjiyeva Z, Jumayev M. E. “matematika o’qitish metodikasi” T – 2005.
11. L.P.Stoylova, A. M. Pishkalo, “Boshlang’ich matematika kursi asoslari” T – 1991.

12. N. Xamedov, Z. Ibragimova, T. Tasetov “Matematika” T – 2007.
13. M. Ahmedov, N. Abdurahmonova , M. Jumayev 1-sinf “Matematika”  
Toshkent -2016
14. N.Abduraxmonova , L.O`rinboyeva “Matematika 2 - sinf” T – 2016
15. S.Burxonova , O` Xudoyorov, Q. Norqulova “Matematika 3 - sinf” T -2015
16. N. U. Bikbayeva, E. Yangabayeva, K. M. Girfanova, “Matematika 4 – sinf”  
Toshkent – 2015. (ikkinchi nashr)
17. N.U.Bikbayeva, E. Yangabayeva, K.M.Girfanova “Matematika 4 – sinf” T -  
2017
18. A.Asimov, Sh.Jo'rayev, “Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy tarbiya muammolari”,  
Ilmiy maqolalar to'plami, Farg'ona 2011 – yil;
19. D.Yusupxo'jayeva, “Iqtisodiy tarbiyani shakllantirish”, Boshlang'ich ta'lim 2004  
yil 3 – soni;
20. D.Toshqo'ziyeva, “Donishmandlar tejamkorlik haqida”, Boshlang'ich ta'lim  
1998 – yil 5 – soni;
- 21.A.Asimov Masala shartini o`zgartirish, “Farg`ona ziyosi” 2016 yil 6-son
22. M. Adhamov, M. Jalilov “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy madaniyat  
elementlarini shakllantirish ” FarDU xabarları, 2017 yil 4 – soni
23. A Asimov “Masala savolini o'zgartirish” Farg'ona ziyosi, 2017 yil 6 – soni
24. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- 25.[www.zionet.uz](http://www.zionet.uz)
- 26.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)